

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**  
**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**  
**“TABIIY FANLAR” FAKULTETI**  
**“Geografiya o`qitish metodikasi” kafedrasи**

**GEOGRAFIYA DARSLARIDA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH**  
**USULLARI**

**mavzusidagi**

# Bitiruv malakaviy ishi

**Bajardi:** “Geografiya o`qitish metodikasi”  
ta’lim yo’nalishi IV- kurs talabasi  
**Sayfiyeva Uljon Abdihomidovna**

---

**Imliy rahbar: dots. Kalonov B.H.**

---

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o`tdi.

Kafedraning \_\_\_\_\_ sonli bayyonnomasи «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2017 yil.

# Navoiy davlat pedagogika instituti

*Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya o`qitish metodikasi kafedrasining*

**1-sonli yig`ilish bayonnomasidan**  
**K O' C H I R M A**

**Navoiy shahri**

**29 avgust 2016 yil**

**Qatnashdilar:** kafedra mudiri, katta o`qituvchi Buranov Yo.R., *dotsentlar*:  
Raxmatov Yu. B, Kalonov B. H., katta o`qituvchilar: B.S.O`rinov, M.M.Qodirova,  
Sh. Sh. Norov, o`qituvchilar: S.Q.Negmatov, O.T. Joniyev, I.A. Xudayberdiyeva,  
M.O. Xoliqova, S.A. Rasulova, kabinet mudirasi: Musayeva N.

## **K U N T A R T I B I:**

2016-2017 o`quv yilida “Geografiya o`qitish metodikasi” ta’lim yo`nalishi  
bitiruvchi kurs talabalarining bitiruv malakaviy ishlari mavzulari va ilmiy  
rahbarlarini tasdiqlash to’g’risida

**E S H I T I L D I:** Kafedra mudiri, kat. o`qit. Yo. R. Buranov so`zga chiqib:  
Bitiruv malakaviy ishi mavzulari Oliy va o`rta maxsus ta’lim vazirligining  
2010 yil 9 iyundagi № 225- sonli buyrug`iga binoan **“Oliy o`quv yurtlarida  
bakalavr bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo`yiladigan talablar”** asosida  
tanlangan.

Geografiya o`qitish metodikasi ta’lim yo`nalishi IV-kurs “A” guruh talabasi  
**Saypiyeva Uljon** mavzular orasidan **“Geografiya darslarida mustaqil ishlarni  
tashkil etish usullari”** mavzusini tanladi va uning ilmiy rahbari sifatida  
**dots. B.H.Kalonov** belgilandi.

## **QAROR QILINDI:**

Geografiya o`qitish metodikasi ta’lim yo`nalishi IV-kurs “A” guruh talabasi  
**Saypiyeva Uljonga** **“Geografiya darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish  
usullari”** mavzusi berilsin va ilmiy rahbar sifatida **dots. B.H.Kalonov** tayinlansin.

**Kafedra mudiri:**

**kat. o`qit. Yo. R. Buranov**

## **Navoiy davlat pedagogika instituti**

## **Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya o`qitish metodikasi kafedrasи**

## Tasdiqlayman \_\_\_\_\_

## **Kafedra mudiri**

**2016 yil** \_\_\_\_\_

# MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO'YICHA TOPSHIRIQ

**Talaba** \_\_\_\_\_  
(familiyasi, ismi, sharifi)

## **1. Bitiruv ishining mavzusi**

---

---

---

“ ” 20 yil. Kafedra majlisida tasdiqlangan.

## **2. Bitiruv ishini topshirish muddati**

---

Digitized by srujanika@gmail.com

**3. Bitiruv ishini bajarishga doir boshlang'ich ma'lumotlar** \_\_\_\_\_

---

---

---

---

---

---

---

---

---

#### **4. Hisoblash – tushuntirish yozuvlarining tarkibi** (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yxati)

**5. Chizma ishlar ro'yxati** (chizmalar nomi aniq ko'rsatiladi)

---

---

---

---

---

---

---

**5. Bitiruv ishi bo'yicha maslahatchi(lar)**

№.	Bo'lim mavzusi	Maslahatchi o'qituvchi I.F.Sh.	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi

**7. Bitiruv ishini bajarish rejasi**

№.	Bitiruv ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi

Bitiruv ishi rahbari \_\_\_\_\_

(familiyasi, ismi, sharifi)

(imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim \_\_\_\_\_

(familiyasi, ismi, sharifi)

(imzo)

Topshiriq berilgan sana 20\_\_\_\_ yil

# **Navoiy davlat pedagogika instituti**

*Tabiiy fanlar fakulteti*  
**“Geografiya o’qitish metodikasi” kafedrasи**

2017 yil “\_\_\_” \_\_\_\_

Nº \_\_\_\_ yig’lish bayoni

## **K O’ C H I R M A**

**Qatnashdilar:** Kafedraning barcha professor-o’qituvchilari

### **K U N      T A R T I B I:**

2016-2017 o’quv yili “Geografiya o’qitish metodikasi” ta’lim yo’nalishi bo’yicha yozilgan bitiruv malakaviy ishlар muhokamasi va ularni himoyaga tavsiya qilish to’g’risida

### **E S H I T I L D I:**

**Bitiruvchi** \_\_\_\_\_ ning

**Mavzusi:** \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

**Ilmiy rahbar:** Bitiruv malakaviy ishi Davlat ta’lim standartlari va dasturlari talablariga mohiyat va mazmun jihatdan mos keladi.

### **Q A R O R      Q I L I N D I:**

**Bitiruvchi** \_\_\_\_\_ ning  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi Davlat Attestatsiya Komissiyasiga himoya uchun tavsiya etilsin.

**Kafedra mudiri:**

**kat. o’qit. Yo. R. Buranov**

## **Davlat attestatsiya komissiyasining**

### **RAISIGA**

Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiatshunoslik fakulteti “Geografiya o`qitish metodikasi” ta’lim yo’nalishi kunduzgi bo’lim IV- kurs “A“ guruh talabasi  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

mavzusidagi Bitiruv malakaviy ishi himoya qilish uchun yuboriladi.

Reyting qaydnomasidan ko’chirma, Bitiruv malakaviy ishi rahbarining taqrizi, kafedraning rahbarni tasdiqlash va ishni himoyaga tavsiya etish haqidagi xulosasi, ichki va tashqi taqrizlar ilova qilinadi.

**Fakultet dekani:**

**b.f.n. B.Ye. Jumaboyev**

**Navoiy davlat pedagogika instituti  
“Geografiya o`qitish metodikasi” kafedrasining  
Bitiruv malakaviy ishi haqidagi**

### **XULOSASI**

\_\_\_\_\_ kurs “\_\_\_” guruh talabasi \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ ning \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ mavzusidagi Bitiruv malakaviy ishi kafedra yig’ilishida muhokama qilingan va Davlat Attestatsiyasi komissiyasiga himoyaga tavsiya etiladi.

**Kafedra mudiri:**

**kat. o`qit. Yo. R. Buranov**

## M U N D A R I J A

### Kirish.....

#### I.bob. *Geografiya darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish sakillari*

- 1.1. *Geografiya darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish.....*
- 1.2. *Mustaqil ishlarga qo'yiladigan metodik talablar.....*
- 1.3. *Darslik yordamida mustaqil ishlarni tashkil etish.....*
- 1.4. *Statistik ma'lumotlar bilan ishlash.....*

#### II.bob. *Geografik kartalar va globuslar yordamida mustaqil ishlarni tashkil etish*

- 2.1. *Reproduktiv va izlanuvchan metod.....*
- 2.2. *Geografik kartalar yordamida mustaqil ishlarni tashkil etish.....*
- 2.3. *Globus yordamida mustaqil ishlarni tashkil etish.....*
- 2.4. *Ayrim mavzular bo'yicha mustaqil ishlarni tashkil etish.....*

### Xulosa.....

### Adabiyotlar ro`yxati.....

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** Maktab ta'limining eng asosiy vazifalari o'quvchilarga fan asoslarini o'rgatish va ularda tegishli malakalar hosil qilish, shu hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalardan o'z faoliyatida o'rinni foydalana olish, yuz bergan qiyinchiliqlarni shu bilim va malakalarga tayanib bartaraf eta bilish qobiliyatlarini o'stirishdan iborat. Jamiyat taraqqiyotini yetuk o'qituvchlarsiz tasavvur etish qiyin. Malakali pedagog mutaxassislar tayyorlash esa ko'p jihatdan ularning metodik tayyorgarligiga bog'liq. Ayniqsa hozirgi murakkab axborotlarni geografik hodissa sabab-oqibatlarni, tabiiy va iqtisodiy geografik tushunchalarni ular ongiga yetkazish, shakllantirish nihoyatda murakkab jarayon hisoblanadi. Maktab dasturi o'quvchilarga geografiyaga oid bilim berish bilan cheklanmaydi, balki ularda zarur ko'nikma va malaka hosil qilishni ham o'z zimmasiga oladi. Har bir o'quvchi darsda olgan ko'nikma va malakalari asosida bilimlarni mustaqil egallashi zarur bo'ladi. Bularning barchasi geografiya o'qituvchisidan maxsus metodik tayyorgarlikga ega bo'lishni talab qiladi.

Uning metodik bilim va malakasi zamon talablariga javob bera oladigan bo'lishi kerak. Bu o'qituvchidan pedagogik faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni tahlil qila olishi, o'z ish tajribasini tahlil qilib, umumlashtira bilishi, boshqa o'qituvchilarning tajribasini umumlashtirish va samarali shakllar, metodlardan o'z ishida oqilona foydalanishni talab qiladi.

“Ta'lim to`g`risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da o'quvchilarga hamda talabalarga faqat geografiyaga oid bilim berish bilan cheklanmasdan balki ularda zarur ko'nikma va malaka hosil qilishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ymoqda. Har bir o'quvchi va talaba dars davomida olgan ko'nikma va malakalar asosida bilimlarni mustaqil egallashi zarur bo'ladi. Respublikamizda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ga muvofiq umumiyoq o'rtalimning barcha bo`g`inlarida o'quvchilarni muntazam bilim olish, ularda bilim olish ehtiyojlarini rivojlantirishni o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini mustaqil ijodiy fikrlash, kasb tanlashga va umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilishni o`z Vataniga, xalqiga sadoqat, mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashdek vazifalarni belgilaydi. Bu vazifalarni bajarishda geografik ta'lim alohida ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa tabiiy va iqtisodiy geografiya fanlarini o`qitish borasida milliy dasturda qo`yilgan vazifalarni bajarish cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini tajribalar isbotlamoqda. Bularning barchasi geografiya fani o`qituvchisidan yuksak pedagogik mahorat, o`z faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni tahlil qila olishni, o`z ish tajribasini tahlil qilib umumlashtira olishni boshqa o`qituvchilarining tajribasini umumlashtirishi va samarali usullar, metodlardan o`z ishida oqilona foydalanishni talab qiladi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Bitiruv malakaviy ishining bosh maqsadi Geografiya darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish sakillari ularni yangi pedagogik texnologiya asosida bilim olishga o`rgatishdan iborat. Mustaqil ishlar yangi materialni o`rganish darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash, kartografik ko'rgazmali qurollar bilan ishlash, ma'ruzalar tayyorlash kabilarni o`z ichiga oladi. Mustaqil ish bajaradigan o'quvchilar biron vazifani bajarishda ilgari olgan bilimga tayanadi. Mustaqil ishdan maqsad nazariy bilimlarni egallash qonuniyatlarini belgilash, bilim olish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Mazkur Bitiruv malakaviy ishida geografiya darslarida o'quvchilar tomonidan bajariladigan mustaqil ishlarni yoritish maqsad qilib olingan.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifasi.** Bitiruv malakaviy ishining vazifasi quyidagilardan iborat:

- Darslik yordamida mustaqil ishlarni tashkil etish;
- Statistik ma'lumotlar bilan ishlash;
- Geografik kartalar yordamida mustaqil ishlarni tashkil etish;
- Globus yordamida mustaqil ishlarni tashkil etishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti.** Navoiy shahrining 17-sonli umumta`lim mакtabida pedagogik amaliyot davrida bajargan ishlar, Paxtachi tumanidagi 14-sonli umumta`lim mакtabalarida olib borilgan darslarni kuzatish va ilg`or pedagoglarning darslarini, metodlarini tahlilini o`rganish asosida amalga oshirildi.

**Bitiriv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lim

to'grisidagi qonun, Davlat ta'lif standarti va uzviylashtirilgan o'quv dasturlari asosida qabul qilingan dasturlar va ilg'or o'qituvchilarining tajribalari.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishida berilgan ilmiy xulosa taklif va tavsiyalardan umumiy o'rta ta'lif makatablarida geografiya darslarini o'tishda foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 ta bob, 8 ta bo`lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat.

Kirish qismida mavzuning dolzarbliji, bugungi kunda geografiya ta'lifida qo'yiladigan talablar, o'quvchilarining bilim olishlari uchun barcha imkoniyatlardan to`liq foydalanish usullari haqida fikr yuritilgan.

I-bobda Geografiya darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish sakillari, mustaqil ishlarga qo'yiladigan metodik talablar, darslik yordamida mustaqil ishlarni tashkil etish, statistik ma'lumotlar bilan ishslash bayon etilgan. O'quvchilar faoliyatini faollashtirish va bilimlarni puxta o'zlashtirishning asosiy vositasiga o'quvchilarining mustaqil ishlar ekanligiga asosiy e'tibor qaratilgan. O'qituvchi o'quvchilarni dastlab darslik matni, illyustratsiyalari, topshiriqlari bilan ishslashga, kartani o'qiy olish va undan mustaqil foydalanishga, rasm va chizmalar bilan ishslashga, ma'lumotnoma va lug'atlar, geografiya atlasi uchun nomlar ko'rsatkichidan foydalanishga, tabiat hodisalarini kuzatish va kuzatish natijalarini ishlab chiqishga, biron geografik ob'yektga reja asosida tavsif berishga, konsept tuzishga o'rgatib borish lozim. Yuqorida ishlarni bajarishga oid muayyan ko'nikma egallangach, o'quvchilarga boshqa, murakkabroq mustaqil ishlarni tavsiya etish mumkin.

II-bob Bitiruv malakaviy ishining asosini tashkil etib, Geografik kartalar yordamida mustaqil ishlarni tashkil etish, Globus yordamida mustaqil ishlarni tashkil etishga ahamiyat berilgan. Ayniqsa yozuvlari yordamida mustaqil ishlarni tashkil etish usullari bayon etilgan. O'quvchilar yozuvlari yordamida bilimlar mustahkamlanganda va amaliy mashg'ulotlarda va uyda uyzafasini bajarishda ishlaydilar.

Xulosa qismida geografiya darslarida mustaqil ishlarning ahamiyati to`liq yoritilgan.

## **I.bob. Geografiya darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish sakillari**

### **1.1. Geografiya darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish**

O'quvchilar faoliyatini faollashtirish, ularning mustaqil ishlariga alohida e'tibor berishni talab etadi. O'quvchilar faoliyatini faollashtirish va bilimlarni puxta o'zlashtirishning asosiy vositasi – o'quvchilarning mustaqil ishlaridir.

Maktab ta'lmini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari, isloh asosida ishlab chiqilgan, takomillashtirilgan mакtab geografiya dasturlari, o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish, ta'lim vositalaridan bilim manbai tarzida foydalanishni nazarda tutadi. O'zbekiston pedagogikasining asosiy talablaridan biri o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini rivojlantirishdir. O'quvchi o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida ishlamasa, bilimlarni rasman egallaydi, keyingi amaliy faoliyatda undan foydalana olmaydi. O'quvchilarning mustaqil ishlari ta'lim jarayonida quyidagi vazifalarn hal etishi mumkin:

O'quvchilarning ongliligi va o'zlashtirgan bilimning sifatini oshirishga;

Ularda dastur talab etgan o'quv ish usullariga oid bilim va ko'nikmalarning shakllanishiga;

O'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda, ishlab chiqarishda tadbiq eta olishi;

O'quvchilarning bilim qobiliyati (kuzatuvchanlik, sinchkovlik, tafakkur, ijodiy faoliy va bilimlarni tadbiq etish) ni rivojlantirishi;

Aqliy va jismoniy mehnat madaniyatiga, mustaqil ishlashiga, oldiga qo'yilgan maqsadga erishishga odatlantirish;

O'quvchilarning kelgusida samarali va mustaqil hayotga tayyorlash imkoniyatlarini beradi.

"Mustaqil ish deb nimaga aytildi?" degan savolning vujudga kelishi tabiiy. Ayrim metodistlar, o'qituvchining bevosita yordamisiz sodir bo'ladigan o'quvchilar faoliyatini mustaqil ish deb hisoblaydilar. Buni to'liq ta'rif deb bo'lmaydi. Ko'pchilik geograf metodistlar o'qituvchining topshirig'i asosida, muayan ajratilgan vaqt mobaynida bajariladigan, aqliy faoliyat talab etadigan

ishlarni mustaqil ish deb biladilar. Yuqoridagi fikrlarni nazarda tutib, bilim va ko'nikmalarini ijodiy tadbiq etib, yangi bilimlarni egallahsga harakat qiladigan ta'limni mustaqil ish deb tushinish mumkin.

Yirik metodist geograf M.K. Kovalevskaya fikricha: “O'quvchilar yangi fakt, hodisalarini aniqlash uchun o'z bilim va tajribalarni tadbiq etsalar, ilgari ularga ma'lum bo'limgan sabab va oqibatlarini izlasalar, yoki masalani hal etishning yangi usullarni topsalar (ya'ni bilim va ko'nikmalarga yangi natijalarga erishsalar) bunday ishni mustaqil ish deyish mumkin”.

Ayrim o'qituvchi va metodistlar “Mustaqil ish” bilan “Amaliy ish” ni bir xil deb tushunadilar. Har qanday amaliy ishni ham mustaqil ish deyish qiyin. Amaliy ishning asosiy maqsadi – o'quvchilarga, geografiya o'quv faniga xos bo'lgan (karta bilan, raqamli ko'rsatgichlar bilan ishlash, tabiat hodisalarini kuzatish kabi) ko'nikma va malakalarini hosil qilishdan iborat. Olingan bilimlarni mustahkamlash amaliy ishlarining asosini tashkil etadi.

Amaliy ish o'qituvchi bilan o'quvchilar faoliyatining nisbatini belgilaydi. Amaliy ishlar o'quvchilar tomonidan ommaviy tarzda ham, o'qituvchining ishtirokida ham bajarilishi mumkin. O'quvchilar amaliy ishlarning bajarish usullari (masalan: kartani o'qish, karta asosida biron hududga geografik tarif berish)ni egallaganlaridan keyin, ishlarini mustaqil bajarish imkoniyati vujudga keladi. Amaliy ishlarning xarakterli xususiyati egallagan bilimlarni amalga tadbiq etish, mustahkamlash bo'lsa, mustaqil ishlarning asosini yangi bilim va ko'nikmalarini egallah, yangi bilimlarni izlashga ilgari egallangan bilimlarga tayanish tashkil etadi. Mustaqil ishlar o'quvchilar faoliyatini amaliy ishlarga nisbatan ko'proq qamrab oladi. Ular amaliy ish bilan birga turli bilim manbalari bilan ishlashni o'z ichiga oladi.

Mustaqil ishning asosiy maqsadi-o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish, ularning mustaqil bilim olishga, ijodiy fikrlashga tayyorlash, ayni vaqtida yoshlarni hayotga tayyorlashdan iboratdir. Demak, mustaqil ishni-yangi bilim va ko'nikmalarini egallah, egallangan bilim va tajribalarni takomillashtirish deyish mumkin.

Mustaqil ish bir necha qismlardan iborat bulib, ular bir-biri bilan o'zaro boglangan. Mustaqil ishni tashkil etganda ularning bir – biri bilan aloqadorligini nazarda tutish taqazo etiladi.

O'quvchilarga tayyor bilim berish amalda keng tarqagan ta'lif tarzidir. Ta'lifning bunday tarzi o'quvchilarning bilish qobiliyatlarini rivojlantira olmaydi. Psixologlar: "Bunday bilim keraksiz yuk bo'lib qoladi" deyidilar.

O'quvchi qanday bilim olayotganini, qanday bilayotganini, bilish usullarini qanday egallayotganini tushunib yetsa, uni mustaqil ta'lif olish deyish mumkin. Demak, geografiya ta'lomidagi mustaqil ishning didaktik vazifasi – o'quv ishlarining o'ziga xos usullarini egallah, binobarin, fanning tadqiqot metodlarini egallahni ta'minlashdan iborat.

Geografiya darsidagi mustaqil ish turli didaktik maqsadlarni nazarda tutishi mumkin. Mustaqil ish asosan yangi materialni o'rganish jarayonida va mustahkamlashda yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish maqsadida tashkil etilishi kerak. Darsda o'qituvchi rahbarligida yangi materialning muayyan qismini o'quvchilar mustaqil o'rganishlari ham mumkin. Yangi materialni o'rganish jarayonidagi o'quvchilarning mustaqil ishlari ikki xil yo'l bilan olib boriladi:

1.O'qituvchi yangi materialni tushuntirib boradi, o'quvchilar esa ayni vaqtida, o'qituvchini tinglash bilan birga muayyan mustaqil ish bajaradilar. Masalan: ifoda etilayotgan yangi material asosida konsept olishlari yoki o'rganilayotgan geografik ob'yekt va hodisalarni yozuvlsiz kartaga tushirib boradilar.

2.O'qituvchi mustaqil ish uchun o'quvchilarga topshiriq beradi, so'ngra yangi materialni tushuntiradi, keyin o'quvchilar mustaqil ish bajaradilar.

Umuman mustaqil ishlari katta ta'limiylar va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mustaqil ish o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantiradi, o'rganilgan masalani chuqurroq o'ylashga, uning eng muhim qismini izlashga, yakun yasab xulosalar chiqarishga imkon beradi. Mustaqil ishsiz mustahkam va ongli bilim berish, tegishli ko'nikma va malakalarni hosil qilish, mustaqil bilim olishni ta'minlab bo'lmaydi.

Fan-texnika ulkan odimlar bilan rivojlanib borayotgan jadallashtirish davrida, maktab quchog'ida olingan bilimlar ko'p o'tmay eskirib qolishi hech gap emas. Binobarin, mehnat faoliyati davomida o'z bilimlarini muttasil to'ldirib,

boyitib borish taqozo etiladi. Bunga tinmay mustaqil bilim olib, o'z ustida ishlab borish bilangina erishish mumkin. Mustaqil ishlari o'quvchilarning o'quv faoliyatlarida, turli didaktik masalalarni hal etishda, nazariy bilimlarni shakllantirishda, geografik qonuniyatlarni aniqlashda, bilim va ko'nikmalarni egallash va amalda tadbiq etishda olib boriladi. Mustaqil ish ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni tekshirishda, yangi materiallarni o'rganishda, uni mustahkamlashda, takrorlashda, shuningdek ekskursiyada tadbiq etilishi mumkin.

## **1.2.Mustaqil ishlarga qo'yiladigan metodik talablar**

Mustaqil ish avvalo geografiya o'qituvchisidan, shuningdek o'quvchilardan muayyan tayyorgarlik talab etadi. Mustaqil ishga o'quvchilarni dars jarayonida oddiy, elementar ishlardan, sekin-asta murakkablashtirib o'rgatib borish lozim. O'qituvchi o'quvchilarni dastlab darslik matni, illyustratsiyalari, topshiriqlari bilan ishlashga, kartani o'qiy olish va undan mustaqil foydalanishga, rasm va chizmalar bilan ishlashga, ma'lumotnama va lug'atlar, geografiya atlasi nomlari ko'rsatkichidan foydalanishga, tabiat hodisalarini kuzatish va kuzatish natijalarini ishlab chiqishga, biron geografik ob'yektga reja asosida tavsif berishga, konspekt tuzishga o'rgatib borish lozim. Yuqoridagi ishlarni bajarishga oid muayyan ko'nikma egallangach, o'quvchilarga boshqa, murakkabroq mustaqil ishlarni tavsiya etish mumkin.

Agar o'quvchilar mustaqil ishlarni bajarishga oid yetarli tayyorgarlikka, muayyan ko'nikma va tajribaga ega bo'lmasalar, ular mustaqil ishlarni bajarishda qiynaladilar, kutilgan samaraga erishib bo'lmaydi. O'quvchilar bajaradigan mustaqil ishlarga quyidagi metodik talablar qo'yiladi:

1.Mustaqil ish o'quvchilar qobiliyati va tayyorgarligiga mos, ular uddasidan chiqa oladigan, ayni vaqtda ularning fikrlash qobiliyatini, ijodiy tashabbusini rivojlantiradigan bo'lishi kerak.

2.O'quvchilarning mustaqil ishlari ilgari egallagan bilim, ko'nikma, shuningdek tajribalaridan foydalanishini taqozo etadigan hamda, ularni yanada rivojlantiradigan bo'lishi lozim.

3.Mustaqil ishlarning turi va mazmuni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning tayyorgarligiga va individual xususiyatlariga mos kelishi shart.

4.Mustaqil ishlar mazmuni xilma-xil va qiziqarli bo'lishini nazarda tutish kerak. Ularning natijasi o'quvchilarga yangilik berishi shart.

5.Har bir mustaqil ish natijasi o'z vaqtida tahlil qilinishi, muhokama qilib baholanishi, mustaqil ish natijalaridan esa ta'lim jarayonida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil ishlar quyi sinflardan yuqori sinflarga asta - sekin murakkablashib borishi lozim. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursida tabiat hodisalarini mustaqil kuzatish bo'yicha quyidagicha topshiriqlar berilishi mumkin:

- a) ob - havoning o'zgarishini;
- b) o'simlik va hayvonlardagi mavsumiy o'zgarishlarni;
- v) quyoshning gorizontdan balandligini mustaqil kuzatish.

"Reja va karta" mavzusida:

- joyning rejasini mustaqil o'qish;
- topografik diktant yozish;
- kompas yordamida azimutlarni belgilash va azimut bo'yicha ob'yektlarni topish;
- uncha katta bo'limgan joyni ko'z bilan chandalab rejasini olish;
- masshtab yordamida globus va O'zbekiston kartasidan oraliqlarni o'lchash.

Materiklar va okeanlar tabbiy geografiyasi kursida o'quvchilarning mustaqil ishlari uchun oddiy xulosalar chiqarishga oid topshiriqlar berish mumkin. Masalan: turli iqlim tiplarini xarakterlovchi raqamli ko'rsatkichlar asosida o'quvchilar (ilgari egallagan bilimlarga tayangan holda) iqlim tiplarini aniqlashlari, tegishli xulosalar chiqarishlari mumkin. O'quvchilardan quyidagi topshiriqqa ham javob talab etish mumkin:

Atlasdagi tegishli mavzuli kartalarni tahlil qilib, Shimoliy Amerikaning 50° va 60° sh. k. lari oralig'idagi Tinch okean sohilining iqlimi va uning tarkib topishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlang.

O'zbekiston geografiyasi kursida mustaqil ishlar yanada murakkablashib, ta'lif jarayonidagi salmog'i ortib boradi. O'quvchilardan sabab-oqibat bog'lanishlarni belgilashni talab etish mumkin. Masalan, Sharqiy Yevropa tekisligi iqlimini xarakterlashda, hudud iqlimining shimoli g'arbdan janubi sharqqa tomon kontinentlashib borishining sabablarini tushuntirib berishni o'quvchilardan talab etish mumkin.

O'quvchilarning mustaqil ish bajarishdagi faolligi, ishning samarasi ko'pincha beriladigan topshiriqqa ham bog'liqdir, binobarin, mustaqil ish topshiriqlariga muayyan talablar qo'yiladi:

1.Muhim tushuncha, sabab - oqibat bog'lanishlar, dunyoqarash, g'oyalarni aks ettirishga, ya'ni kurs mavzularining ta'lifi - tarbiyaviy maqsadlarini bajarishga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.

2.Topshiriqlar bilimlarning barcha komponentlarini qamrab olgan bo'lishi kerak.

3.Turli ta'lif vositalari: darslik, qo'shimcha adabiyotlar, turli mazmundagi geografik kartalar bilan birga suratlar, rasmlar, ekranli qo'llanmalar, televideniya eshittirishlari, foydali qazilmalar, namunali gerbariyalar, statistik ma'lumotlar bilan mustaqil intilish ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlash.

4.O'quvchilarning bilim qobiliyatlarini rivojlantirish va ijodiy fikrlashga imkon berish.

5.O'quvchilarda geografiyaga qiziqish uyg'otish.

O'quvchilarning mustaqil ishlari o'ylab tuzilgan topshiriqlar sistemasi asosida va muntazam ravishda olib borilgandagina samara beradi.

**Mustaqil ish turlari.** Mustaqil ishlar sistemasini mustaqil ish turlari bo'yicha bo`lib chiqish yaxshi samara beradi. Mustaqil ish sistemalarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin.

## I. Geografiya kurslari bo'yicha:

1. Tabiatshunoslik

2. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi
3. Materiklar va okeanlar tabbiy geografiyasi:
4. O'rta Osiyo tabbiy geografiyasi
5. O'zbekiston tabiiy geografiyasi
6. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi
7. Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi.

Har bir geografiya kursidagi mustaqil ish topshiriqlari mavzular bo'yicha ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

## **II. Bilim komponentlari bo'yicha:**

1. Umumiy tushunchalarni shakllantirish.
2. Xususiy tushunchalarni shakllantirish.
3. Geografik bilimlarni shakllantirish.
4. Geografik ko'nikmalarni shakllantirish.
5. Geografik faktlar bilan ishlashga o'rgatish.
6. Sabab – oqibat bog'lanishlarni aniqlashga o'rgatish.
7. Geografik qonuniyatlarni shakllantirish.
8. O'quv faoliyati usullarini shakllantirish

## **III. Didaktik maqsadlar bo'yicha.**

1. Tayanch bilim va ko'nikmalarni tiklash
2. O'rganilgan o'quv materiallarini mustahkamlash
3. Yangi bilim va ko'nikmalarni egallash
4. Bilim va ko'nikmalarni sistemaga solish.

## **IV. Bilim manbalari bo'yicha:**

1. Darslik bilan ishlash
2. Geografik kartalar bilan ishlash
3. Yozuvsız kartalar bilan ishlash
4. Ta'larning texnika vositalari (diafilm, diapositiv, kinofilm, kodoskop) bilan ishlash.
5. Kompyuter texnikasi bilan ishlash.
6. Tarqatiluvchi didaktik materiallar (foydali qazilma namunalari, gerbariylar) bilan ishlash.

7. Qo'shimcha adabiyotlar (gazeta, jurnal, xrestomatillar) bilan ishlash.
8. Statistik ma'lumot va raqamli materiallar bilan ishlash.
9. Illyustratsiyalar bilan ishlash.
10. Tabiat hodisalarni kuzatish va kuzatish materiallarini ishlab chiqish.

Mustaqil ishlarning sanab o'tilgan turlaridan, geografiya o'qituvchisi o'z imkoniyati, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, o'rganiladigan kursning mazmuni va o'quv moddiy baza (ta'lim vositalari)ning mavjudligiga qarab foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil ishlarning ayrim turlarining bajarilishiga to'xtab o'tamiz.

Tabiiy geografiya kurslarida va regional kurslarda o'quvchilar quyidagi mustaqil ishlarni bajarishlari mumkin.

1. Biron mavzuga oid o'quv kinofilmni ko'rib chiqqach, ilgari egallagan bilim va tajribaga tayanib berilgan topshiriqlarga javob berish.

2. O'rganilgan bilim mazmunini aks ettiruvchi misol va xulosalarni darslik matnidan topish.

3. Darslik illyustratsiyasi, sxemalari va raqamli materiallarini tahlil qilib, topshiriqqa javob tayyorlash. Darslik matni bo'yicha hikoya rejasini tuzish.

4. Atlasdan kartalarning muhim ob'yektlarni belgilash, kartalarni qiyoslab xulosalar chiqarish.

5. Ta'lim vositalari bilan mustaqil ishlash. O'quvchilar ta'lim vositalarini sinchiklab ko'rib chiqadilar, topshiriqlarga javob beradilar, xulosalar chiqaradilar.

6. Tabiat hodisalarini kuzatadilar, kuzatish natijalarini ishlab chiqadilar, tegishli xulosalar chiqaradilar.

7. Ilgari egallagan geografik bilimlar asosida ob'yekt va hodisalarni mustaqil qiyoslab, tegishli xulosalar chiqarish. Masalan, Yevrosiyo relyefi va iqlimi haqida egallagan bilimlariga tayanib, o'quvchilar G'arbiy Yevropa bilan Sharqiy Osiyo daryolari xususiyatini, rejmini mustaqil aniqlashlari mumkin.

8. Geografik kartalar bilan olib boriladigan mustaqil ishlar hajmi kengaytiriladi, o'quvchilar foydalanadigan kartalar miqdori ko'paytiriladi. Tematik kartalar o'zaro qiyoslanib, xulosalar chiqariladi.

9. Yozuvsiz kartalarga tushirilgan ob'yekt va hodisalarning xususiyatlarini so'zlab berish talab etiladi.

Umuman o'quvchilar bajaradigan barcha mustaqil ishlarni maqsadga ko'ra asosan 3 guruhga bo'lish mumkin.

1.Ko'nikmalarni amalga tatbiq etadigan va rivojlantiradigan ishlar: adabiyotlar bilan ishlash, hodisalarning asosiy belgilarini va geografik ob'yektlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, nazariy bilimlarini o'quvchilarga hali ma'lum bo'limgan yangi fakt va hodisalarga tadbiq etish.

2.O'quvchilarning faoliyati jarayonida ularning faolligini oshiruvchi ishlar: aqliy harakat usullaridan foydalanuvchi mashqlar.

3.O'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantiruvchi va bu jarayonda yangi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi ishlar.

Didaktikada o'quvchilarning mustaqil ishlarni asosan 3 bosqichga bo'lish mumkin (tayyorgarlik nuqtai nazariyadan).

1.Mustaqil ishga tayyorlovchi dastlabki mustaqil ishlar (ularni bajarish usullari, qoidalari, sinfda o'rgatiladi.)

2.O'qituvchining bevosita rahbarligi ostida bajariladigan yarim mustaqil ishlar.

### 3. Haqiqiy mustaqil ishlar.

Mustaqil ishlar oddiydan asta-sekin murakkablashtirib boriladi. Mustaqil ishlarning murakkablashib borilishini M.K.Kavalevskaya 3 bosqichga bo'lган:

1.Yangi fakt va hodisalarni izlashni talab etuvchi nisbatan yengil topshiriqlar. Bular "qayerda?", "qay vaqtda?", "qancha?" degan savollarga javob beruvchi topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Masalan: "O'zbekistonning qayerlarida temir, ruda konlari joylashganligini aniqlang", "O'zbekistonning qayerlarida yirik GESlar va GRSlar qurilgan?"

2.Geografik hodisalarning sabab –oqibatlarni belgilash va tushuntirishni talab qiluvchi nisbatan murakkabroq topshiriqlar.

3.Fakt va hodisalarni umumlashtirishni talab etuvchi nazariy yo'nalishdagi muhim va qiyin topshiriqlar. Bunday topshiriqlar umumiylashtirish uchun tushuncha, qonuniyatlar va ish usullarini tushintirishni nazarda tutadi.

**Mustaqil ishlarni olib borish metodlari.** Mustaqil ishlarni o'tkazish o'rni va metodlari o'quv materiali, topshiriqlarni qaysi maqsadda bajarilishiga qarab har xil bo'ladi. Masalan: tayanch bilimlarini qayta tiklashga oid topshiriqlar ko'pincha yangi materialni o'rganish oldidan bajariladi. Bunday topshiriqlar geografiya darsliklarida, deyarli har bir mavzu oldidan beriladi. Tayanch bilimlarini qayta tiklashga oid topshiriqlar yangi materialni o'rganish jarayonida ham bajarilishi mumkin.

Geografiya kursida o'quvchilar juda ko'p matematik kartalar bilan ishlaydilar. O'quvchilarning matematik kartalarni o'qiy olishga, kartalarda geografik ob'yekt va hodisalarni "ko'ra olishga", kartadan bilim manbai tarzida foydalanishga o'rgatib borish lozim. Ob'yekt va hodisalarni karta asosida tarif berish uchun o'quvchilar bilan dastlab uning rejasini ko'rib chiqish va reja punktlarini bajarish bo'yicha metodik ko'rsatma berish talab etiladi. Yuqoridagi ko'rsatmalar va tayyorgarlikdan, o'quv ish usullarini egallaganlaridan keyin o'quvchilar mustaqil ish bajarishga kirishishlari mumkin. Mustaqil ishlarning samarasi, o'quvchilarning tayyorgarligiga, o'qituvching ijodiy faoliyati, mahorati, tajribasi va qamrov doirasiga bog'liq.

O'zbekiston geografiyasini o'rganishda mustaqil ishlarni tashkil etish.

Ta'lim uslublari o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda ularning mustaqil dunyoqarash va e'tiqodini tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Geografik qonuniyatlarni tabiat hodisalariga ta'sir etuvchi omillarni yoritishda O'zbekiston hududining rel'yef xususiyatlarini vujudga kelishi, iqlimning tarkib topishi, organik dunyosini moslashishini o'rganishda tushuntirish usulidan foydalaniladi, yoki o'qituvchi geografik ob'yektlarni va landshaftlarni tasvirlashda hikoya usulidan foydalanadi. Uning fikri g'oyaviy va mantiqiy asoslar, ifodali va badiiy bo'lsa yaxshi natija beradi. Hikoya 10-15 minut davom etadi. O'zbekiston tabiiy sharoitini o'rganishda boshqa o'lkalarning tabiiy sharoiti bilan taqqoslab o'rganiladi. Masalan, O'zbekistonning maydonini boshqa mamlakat maydoniga,

tog'larning tabiiy xususiyatlarini Al'p, Karpat tog'lariga taqqoslanadi. Iqlimini, daryolarini o'rganishda ham bu usuldan foydalaniladi. Suhbat o'qituvchining va o'quvchining javobi asosida tashkil etiladi. Suhbat davomida o'qituvchi o'quvchilar fikrini o'rganilayotgan geografik ob'yektni o'ziga xos xususiyatlarini hodisalarning asosiy belgilarini aniqlashga jalb qiladi. Suhbat usuli yangi bilimlarni egallash, xulosalar chiqarishda, kuzatish materiallarini ishlab chiqarishda o'rgangan materialni takrorlashda o'quvchilar uchun muhim ahamiyatga ega. Og'zaki bayon qilish va suhbat usulidan foydalanilganda o'quv ko'rgazmali qurollari, texnika vositalaridan foydalanilganda ham yuqori saviyali bo'lish mumkin.

O'zbekiston tabiiy geografiyasidagi turli mazmundagi: tabiiy, ekologik, iqlim, tuproq, o'simlik kartalaridan foydalanish tabiat mintaqalari landshaftlarini tasvirlovchi rangli suratlar, tog' jinslari, tuproq namunalari, o'simlik namunalari, o'quv filmlari aniq tasavvur hosil qilishda, bilimlarni ongli ravishda o'zgartirishda yordam beradi. Darsda sinf doskasidan ham foydaliniladi. bunda geografiyadan nazariy bilimlar chizma va rasmlar bilan boyitiladi. Chizilayotgan rasmlar o'quvchilarning ko'z oldida chiziladi, bu ularning bilim olishini faollashtiradi.

**Mustaqil ish usullari.** Yangi materialni o'zlashtirishda o'quvchilar tomonidan bajariladigan ishlardan biri mustaqil ishlardir. Bu usul yangi bilimlarni amalga tatbiq eta olishdan iborat. Psixolog va pedagoglarning ta'kidlashicha, o'quvchi bilim olishda mustaqil ishlashni o'rganmasa bilimi yuzaki bo'ladi. Mustaqil ish bilan amaliy ish o'rtasida farq bor. Amaliy ish karta bilan ishslash, tabiat hodisalarini kuzatish meteorologik asboblar bilan kuzatish, geografiyaga oid usullar bilan tanishib ko'nikma hosil qilishdan iborat. Amaliy ishdan ko'zlangan maqsad nazariy bilimlarni amalda tatbiq etish o'rganilgan materialni puxtarop tushunishdir. Amaliy ishslash yakka tartibda va guruhlar tarzida bo'lishi mumkin. Mustaqil ishlar esa yangi materialni o'rganish darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishslash kartografik ko'rgazmali qurollar bilan ishslash ma'ruzalar tayyorlash kabilarni o'z ichiga oladi. Mustaqil ishdan maqsad nazariy bilimlarni egallash qonuniyatlarni belgilash bilim olish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Yakunlovchi tayyorlashda ham o'quvchilar amaliy ishdan foydalanishi mumkin. O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'rganishda mustaqil ishning bir necha turi bor:

**1. Darslik bilan ishlash:**

- Matn rejasini tuzish;
- Ayrim materiallarini mustaqil o'rganish;
- Darslik matniga bog'langan jadvalni o'rganish;
- Mashq va topshiriqlarni bajarish.

**2. Yozuvsız karta bilan ishlash:**

- Masshtabni o'qish;
- Tabiiy geografik oblastlarni karta yordamida tasvirlash;
- Hududga karta orqali geografik ta'rif berish;
- Yozuvsız karta bilan ishlash.

**3. O'qituvchi o'quv materiallarini bayon qilayotganda bajaradigan mustaqil ishlari:**

- Hikoya rejasini tuzish;
- Chizmalar chizish;
- Yozuvsız kartani to'ldirish.

**4.O'zbekiston yoki o'z o'lkasi tabiatini kuzatish:**

- Ob –havoni kuzatish;
- Gidrologik tarmoqlarni kuzatish;
- Fenologik (fasliy) kuzatish
- Tog' jinslaridan namunalar to'plash;
- O'simlikdan namuna olish;
- Relyefni o'rganish.

**5. Ko'rsatmali qo'llanmalar bilan mustaqil ishlash:**

- Rasm va chizma bilan hududning tabiatini tasvirlash
- O'simlik va foydali qazilma namunalari bilan ishlash
- Ekranga tushiriladigan qo'llanma bilan ishlash

**6.Qo'shimcha adabiyot bilan ishlash:**

- O'qituvchi tavsiya etgan adabiyotni o'qib konspeklashtirish

## 7. Raqamli materiallar bilan ishlash:

- Diagramma ,grafik chizmalar chizish;
- Jadvallarni tahlil qilish;

O'zbekistonni tabiiy geografiyasini o'rganishda profillardan ham foydalilaniladi. Uni chizayotganda O'zbekiston tabiiy geografiyasi darsligi va kartalaridan foydalilaniladi:

1. Relyef (profil) kesmasi;
2. Iqlim (profil) kesmasi;
3. Tuproq va o'simlik (profil) kesmasi;
4. Kompleks (profil) majmuali kesma.

### **1.3.Darslik yordamida mustaqil ishlarni tashkil etish**

**Geografiya darsligining tuzilishi.** Geografiya ta'limida darsliklar asosiy bilim olib manbai bo'lib hisoblanadi, shuning uchun ular asosiy o'qitish vositalaridir. Geografiya darsliklari yuqori ilmiy darajaga ega bo'lishi, metodik va pedagogik jixatdan asoslangan bo'lishi lozim. Darslikning metodik tuzilishi o'quvchilarni o'qishga o'rgatishga yo'naltirilgan. Darslik juda ko'p ta'limiylar vazifalarni bajaradi. Darslik bilan ishlaganda o'quvchilar quyidagi ishlarni bajarishadi: matn bilan ishlash usullari , kartografik ma'lumotlar bilan ishlash usullari, statistik ma'lumotlar bilan ishlash usullari, chizmalar, rasmlar, fitografiyalar bilan ishlash usullari, matndagi jadvallar bilan ishlash usullari, matndant tashqaridagi materiallar bilan ishlash usullari, darslikdagi ilovalar bilan ishlash usullari va h. k. Geografiya o'qituvchisi darslikning mazmuni bilan yaxshi tanishgan va o'zlashtirgan taqdirdagina darslik bilan ishlash ishlarini yaxshi tashkil qilish mumkin. Geografiya darsliklari ikkita yirik qismiga bo'linadi: a) darslikning o'quv matni, b) matndan tashqaridagi materiallar. Mazkur qismlarning har biri yana o'z navbatda alohida – alohida qismlarga bo'linib ketadi.

Darslikning asosini uning matni tashkil qiladi. Matnda o'quvchilar uchun yangi ma'lumotlar beriladi. Darslikning matnida ma'lum bir mavzuning bayoni berilgan va u quyidagi qismlardan iborat: nazariyalar, tushunchalar, tavsiflar va metodologiya. Nazariyalar ilmiy tushunchalar, qonunyatlari, tamoyillari, dunyoqarash g'oyalar va yakuniy xulosalar iborat. Darsliklarda ko'p hollarda tushunchalarni ifodalaydigan atamalar shriftlar bilan ajratiladi. Darslikning matniida tabiiy va iqtisodiy geogeografik komplekslar orasidagi o'zaro aloqalarini ochib beradi, ishlab chiqarish tarmoqlarni joylanish tamoyillarini, u yoki bu tabiiy voqeа va hodisalarni sababini tushuntirib beradi. Ayrim hollarda matndagi tushunchalar muammoli xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin, bu esa o'quvchilarni ijodiy tafakkurrini rivojlanishga va bilim faoliyatini faollashuvga imkon beradi. Geografik matnlarning asosiy xususiyatlaridan biri voo'ea va xodisalarni bayoniga ba-ishlangandir. Masalan, sharoit tavsifi, iqtisodiy geografik tavsif, va h.k.

Darslikning matnida ilmiy belgilarni olish usullari hamda fanning metodlari bilan tanishishga katta axamiyat berilgan. Masalan, kartografik usul, landshaft usul, aerometodlar, kosmik usul va h.k. Darslik matnida o'quv metodlarini bayonida juda ko'p mantiqiy aloqalar uchraydi. Masalan, shuning uchun, shunday qilib, demak, agar, shundan kelib chiqqan holda va h.k. matn bayoni davomida ayrim xollarda topshiriqlar uchrab qolishi mumkin. Masalan, tushuntirib bering nima uchun shimoliy yarim sharda daryolar o'ng qirg'og'ini emiradi; aytingchi daryolarning nishabi ular tezligiga qanday ta'sir qiladi; o'ylab ko'ring nima uchun Afrikada qaloq davlatlar ko'p va h.k. shknday qilib matnni tuzilishini o'zi o'quvchilarni o'quv materialini tushunishga yo'naltiriladi, yangi bilimlarni o'zlashtirishni osonlashtiradi.

Darslik matnnini o'quvchilar tomonidan tushuntirishi va o'zlashtirilishi murakkab jarayon xisoblanadi. U quyidagi omillarga boo'liq: a) o'quvchilarda zarur bilimlarni bor yoki yo'qligi; b) matndagi tanish va notanish so'zlarning nisbatiga; v) matnnni o'qish ko'nikmasini shakillanish darajasiga.

Matndan tashqaridagi mlumotlar o'qitish va nazorat vazifalarini bajaradi. Matindan tashqaridagi ma'lumotlarga o'uyidagilar kiradi: a) savol va topshiriqlar; b) mundarija, shriftlar, sanali belgilar; v) ko'rgazma metodlar. Har bir darslik juda ko'p savol va topshiriqlar tizimi berilgan. Ular tushunchalarni o'zlashtirishga, geografik voqeа va xodisalar orasidagi aloqalarni aniqlashga, ko'nikmalarni qo'llash yo'naltirilgan. Savol va topshiriqlar darslikni turli joylarida uchraydi: yangi mavzuni oldida; matnnni ichida; matinni oxirida.

Darslik matnini oldida joylashgan savol va topshiriqlar o'quvchilar tomonidan ilgari olingan bilimlarni faollashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Masalan, biror xududni iqlimini o'ganishdan oldin iqlim hosil qiluvchi omillar haqidagi bilimlarini faollashtirish. Matnni ichidagi savol va topshiriqlar o'quvchilarini fikrlash faoliyatini yangi o'quv materialini o'zlashtirishga yo'naltiradi. Matnni so'ngida berilgan savol va topshiriqlar esa olingan bilim va ko'nikmalarni qo'llashga yo'naltiradi. Masalan, daryolar mavzusini o'tganda, daryo nima, o'zan nima, daryo vodiysi, daryoni to'yinishi haqida olingan bilimlarni qo'llash mumkin.

Yirik bo'limlar so'ngida berilgan savol va topshiriqlar umumalashgan xususiyatga ega, bilimlarni tartibgasiyatga ega, o'quvchilarni umumiyl dunoqarash xulosalar qilishga olib keladi. Matndagi ko'rgazmali materiallarga quyidagilar kiradi: matndagi kartalar : muqovadagi kartalar ; diogrammalar, chizmalar va jadvallar; rasmlar va fotografiyalar; turli xil kesmalar; orgrafik chizmalar. Ko'rgazmalar faqat matnni mazmunini boyitibgina qolmasdan alohida bilim manbaii bo'lib ham hisoblanadi.

Geografiya darsliklarining oxirida berilgan atama va tushunchalar lug'atda mazkur kursda berilgan tushunchalar tizimining ro'yxati beriladi.

Darslik bilan ishslash geografiya ta'limida muntazam olib boriladi. Darslik bilan ishslash texnologiyasi qo'yidagi qismlardan iborat: darslik bilan tanishish va u bilan ishslash qoidalarini o'rgatish; darslik matni bilan ishslash; darslikdagi kartalar

bilan ishslash; matndagi tizmalar bilan ishslash; matndagi rasmlar bilan ishslash; matndagi jadvallar bilan ishslash; darslik ilovalari bilan ishslash; darslik bilan ishslashni tashkil qilish; har bir sinf darsligi bilan ishslashni o'ziga xos xususiyatlari.

O'quv yilini boshida o'qituvchi o'quvchilarni darslik bilan tanishtiradi. Darslik bilan tanishtirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Dastlab darslikni nomi, mualliflari, qaysi nashriyotda va qachon chop etilgani o'quvchilarga tushuntiradi. Shundan so'ng darslikning tarkibiyy tuzulishi ochib beriladi. (Kirish, necha qism, necha bob, ilovani bor yo'qligi) Masalan, 7-sinf darsligini oladigan bo'lsak, darslik O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi deb nomlanadi, darslikni mualliflari P.G'ulomov, X.Vaxobov, P.Baratov. M.Mamatqulov hisoblanadi, darslik "O'qituvchi" nashriyotida 2003 yil chop etilgan.

Darslik kirish, ikkita bo'llim, 9qism va ilovadan iborat. Darslikning bиринчи bo'limi O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi bag'ishlangan, иккинчи bo'limi esa O'zbekiston tabiiy geografiyasi bayoniga bag'ishlangan. Darslikning ilova qismi 7-ta jadvaldan iborat (tog' cho'qqilari, chuqur botiqlari, yirik daryolar, ko'llar, suv omborlar, qo'riqxonalar). Darslikning umumiyy hajmi 174 bet. Darslikdagi 59 ta rasm berilgan. Rasmlar kartalardan, diogrammalardan, chizmalardan iborat. Shundan so'ng darslikdan foydalanish qoidalari tushuntiriladi (toza tutish, darslik sahifalariga turli xil so'zlarni yozmaslik, buzmaslik, yirtmaslik va h.k).

Darslikning matni bilan ishslash. Darslikni matni bilan ishslash quyidagi qismlardan iborat: izohli o'qish; matni asosida reja tuzish; matnni ma'lum bir qismini o'qib so'ngra so'zlab berish. Izohli o'qish o'qituvchi yoki o'quvchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bundan matn qismlarga bo'linib o'qiladi so'ng o'qilgan matnga izoh beriladi. Masalan, 7-sinf darsligining bimrinchi bo'limini 14-\$ da quyidagi jumlanı keltirishimiz tekisliklar O'rta Osyoning markaziy, g'arbiy va shimoliy qismlarda joylashgan. O'rta Osyoning anchagina qismlarini Turon tekisligi egallagan. Bu tekislikda O'rta Osyoning yirik cho'llari – Qoraqum va Qizilqum joylashgan (41 bet). Mazkur jumlanı o'qigandan so'ng o'qituvchi unga izoh beradi. Izoh deganda u tekisliklar, ularning turlari, kelib chiqishi haqida so'zlab, O'rta Osyodagi eng yirik bo'lgan Turon tekisligini kartadan ko'rsatib, uning asosiy xususiyatlarini gapirib beradi. Matinni ayrim

qisimlariga reja tuzilishi. Bunda matn ma'lum bir qismlarga bo'linib o'quvchilarga bo'lib beriladi va ulardan matnning ushbu qismiga reja tuzish vazifasi beriladi. Masalan, O'rta Osiyo hududining rivojlanish tarixi va foydali qazilmalari mavzusini matnnini quyidagi qismlarga bo'lish mumkin:

- paleozoy erasida hududning rivojlanishi;
- mezozoy erasida hududining rivojlanishi;
- kaynazoy erasida hududning rivojlanishi;
- zil-zilalar;
- foydali qazilmalar.

Shulardan foydali qazilmalar qimsiga quyidagicha reja tuzish mumkin: yoqilg'i foydali qazilmalari: (ko'mir, neft, gaz), qora metall konlari: rangli metallar konlari: meniral o'g'itlar konlari: qurilish xom ashyosi konlari (marmar, ohak,qum, granit).

Darslikdagi kartalar bilan ishslash. Har bir sinf geografiya darsligining matnidagi mavzusiga oid turli xil kartalari bilan ishslash ishslash. Kartalar 6,7,8 va 9-sinf darsliklarida ko'proq matndagi kartalar asosan mustaqil ishlarni bajarishda ko'proq ishlatiladi. Masalan, 7-sinf darsligining 7-saxifasida Yevrosiyoning tabiiy geografik o'lkalari kartasi berilgan. Ushbu karta bo'yicha quydagи topshiriqlarni o'quvchilarga berish mumkun:

-Janubiy Osiyoda joylashgan Yevroсиyo tabiiy geografik o'lkalarni aniqlang va ularning geografik joylanishiga baho bering;

- Eronda joylashgan tabiiy geografik o'lkalarni aniqlang;
- O'rta Osiyo tabiiy geografik o'lkasti qaysi o'lkalarni orasida joylashgan;
- Shimoliy Osiyo qanday tabiiy geografik o'lkalardan iborat va h.k.

Shunday taxlitda har bir mavzuli karta bo'yicha o'quvchilarga mustaqil ish uchun vazifa berish mumkun. Darsliklarda juda ko'p rasimlar ham berilgan. Mazkur rasimlar tabiiy va iqtisodiy geografik obektlarini tasviriga bag'ishlangan. Shuning uchun kartadagi rasmlar bo'yicha ham o'quvchilarga mustaqil ishlar berish mumkin. Geografiya darslaridagi rasmlarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: buyuk olim va sayohlarning rasmlari : tabiiy landshaftlar manzarasini tasvirlaydigan rasmlar (tug'lar, tekisliklar, vodiylar chuqurlar va h.k), tabiiy geografik jarayonlarning oqibatlari va ko'rinishlari tasvirlaydigan rasmlar (nurash,

sho'rxok, vulqon, zil-zila va h.k), iqtisodiy geografik obektlarni tasvirlaydigan rasmlar (zavod, suv ombolari, qishloq xo'jalik ekinlari, yo'llar, kanallar va h.k). Chizmalar kartalarga o'xshab darslikda juda ko'p uchraydi. Ular geografik aloqalar va qonuniyatlarni ifodalaydi, ular orqali mavzuga tegishli qonuniyatlarni o'quvchilarga oson tushuntirish mumkin. Masalan, yerga quyoshdan keladigan issiqlikni uni tushish burchagiga bog'liqligini ko'rsatuvchi chizmalar. Darsliklarda berilgan chizmalarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

-Boshlang'ich tabiiy geografiya kurslarida berilgan chizmalar (litosfera, gidrosfera, atmosfera, biosfera, yer va olam mavzulavrida);

-Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi hamda O'rta Osiy va O'zbekiston tabiiy geografiya kurslari bhyicha berilgan chizmalar;

-Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarida berilgan chizmalar. Mazkur chizmalar asosan diagrammalardan iborat. Ular xalq xo'jalik tarmog'ini ma'lum bir qismlarini ko'rsatgichlarini tasvirlaydi.

Umumta'lim maktablari geografiya darslarida jadvallardan foydalanilgan. Tabiiy geografiya darsliklarida jadvallar asosan ilovalarda berilgan. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darsliklarida matinda jadvallar ko'proq o'rinni olgan, jadvallarda ko'proq iqtisodiy ko'rsatgichlar berilgan. Ular orasida ma'lum bir iqtisodiy tarmoqni o'sish dinamikasini ochib berish mumkin. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darsliklaridagi jadvallarni quyidagi guruhlarga bo'lishimiz mumkin: siyosiy geografik, demografik, tabiiy resurslar, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va xalqaro iqtisodiy aloqalar, regional iqtisodiy geografik sharoitni tasvirlaydigan jadvallar.

Jadvallarni tahlili bo'yicha o'quvchilarga juda ko'p mustaqil ishlar berish mumkin. Har bir sinfda darslik bilan ishslash o'ziga xos xususiyatlarga ega. Beshinchi sinfda boshlang'ich tabiiy geografiya kursini o'rganishda izohli o'qish, matindagi savollarga javob berish, matinining rejasini tuzish, matindagi asosiy fikrni aniqlash muhim o'rinni tutadi. VI sinfda "Materiklar va okeanlar" tabiiy geografiyasini o'rganishda quyidagi holatlarga katta e'tibor berish lozim: qiyoslash, matnning mazmuni bo'yicha chizmalar, rasmlar va jadvallar tuzish, matindan ma'lumotlarni ko'chirib olish, geografik obektlar ro'yxatini tuzish,

matnni kengaytirilgan rejasini tuzish. 7-sinfda O’rta Osiyo tabiiy geografiyasini o’rganishda ishlar bir oz murakkablashadi. Mazkur kurs bo’yicha quyidagi topshiriqlarni berish mumkin: matnga kengaytirilgan reja tuzish, chizmalar chizish, turli xil aloqalar va bog’liklarni ko’rsatadigan jadvallar tuzish (tabiiy geografik o’lkalar) jadvalini tuzish, iqlimiylar jadvallar tuzish va h.k). VIII- sinfda “O’zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiya” kursi o’tiladi. Mazkur kurs darsligi bo’yicha quyidagi ishlarni bajarish mumkin: matnga reja tuzish, turli xil kartalar bilan ishslash (foydali qazilmalar, ma’muriy, iqtisodiy, transport va h.k). Jadvallar bilan ishslash (aholi, mineral ressurslari, tarmoqlar bo’yicha iqtisodiy ko’rsatkichlar), chizmalar (diagrammalari bilan ishslash) va h.k. IX- sinfda “Jahon iqtisodiy va ijtimoiyi geografiyasi” kursi o’tiladi. Mazkur kursni o’ganishda o’quvchilarga murakkabroq topshiriqlar beriladi: matnni o’qib xulosalar tayyorlash; iqtisodiy geografik kartalarni tahlil qilib ma’lum bir davlatni iqtisodiy geografik tavsifini tuzish, yoki sanoat va qishloq xo’jaligi rivojlangan hududlarni aniqlash, jadvallar tahlili asosida turli xil chizmalar va diagrammalar tuzish va h.k.

#### **1.4. Statistik ma’lumotlar bilan ishslash**

Maktab geografiya ta’limida juda ko’p sonli ma’lumotlar mavjud, ular tabiatshunoslik kurslaridan tortib amaliy geografiya kurslarigacha uchraydi. Sonli, ya’ni statistik ma’lumotlar bilan ishslash ko’nikmalarini shakillantirish o’quvchilarni bilish va fikrlash faoliyatini rivojlantirishda juda katta ahamiyatga ega. Geografiya darsliklarida uchraydigan statistik ko’rsatgichlarni quyidagi guruhlarga bo’lishimiz mumkin: mutloq o’lchamlar; nisbiy o’lchamlar; koeffitsentlar.

Mutloq o’lchamlar ma’lumotlari katta ahamiyatiga ega bo’ladi, ular orqali geografik hudud, voqealar va hodisalarini o’lchamlari beriladi, masalan, davlatlar maydoni, aholi soni, tog’larining balandligi, daryo uzunligi, okeanlar maydoni va chuqurligi h.k.

Nisbiy o'lchamlar mutloq o'lchamlarni qiyoslash natijalarini ifodalaydi, geografik voqeа va hodisalarni qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradi. Masalan, havoning o'rtacha harorati, bosimni o'zgarishi, demografik jarayonlarni kechishi, ishlab chiqarishni joylashishi va h.k.

Koeffitsentlar alohida voqeа va hodisalarni o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydigan ko'rsatgichlar. Masalan, namlanish koeffitsenti, iqtisodiy rayonlarni ixtisoslashuvi , aholii va sanoatini o'sishi suratlari va h.k.

Tabiiy va iqtisodiy geografiya kurslarida qo'llaniladigan statistik ma'lumotlarni yana quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin:

-yakka raqamlar shaklida, asosan mutloq qiymatlarda, masalan tonna, kilometr, kilovatt-soat, kilogramm va h.k.;

-chizma tarzida (diagramma, grafik, kartogrammalar, kartadiogrammalar) ifodalangan raqamlar;

-statistik jadvallar tarzida ifodalangan raqamlar.

Maktab geografiya darsliklarida uchraydigan raqamlar bilan ishlashni quyidagi shakillari mavjud:

- a) kerakli statistik ma'lumotlarni yig'ish;
- b) statistik ma'lumotlarni solishtirish;
- v) umumlashgan statistik ko'rsatgichlarni aniqlash;
- g) grafik, diagramma va jadvallardagi statistik ma'lumotlarni tahlil qilish;
- d) grafik, diagramma va jadvallar tuzish.

Kerakli statistik ma'lumotlarni yig'ish 5-sinfdan boshlanadi. Mazkur ma'lumotlarni o'quvchilar ob-havo kalendarini bilan ishlaganda yig'ishadi. Bunda o'qituvchi ma'lum bir oyni tanlab olib ob-havoni kuzatishni tashkil qiladi. Bundan tashqari 5-sinfda gidrosfera, litosfera va beosfera mavzularini o'rganish davomida statistik ma'lumotlarni yig'ib tegishli qonuniyatlarini aniqlash mumkin.

Umumlashgan ko'rsatgichlarni geografik mohiyatini o'quvchilar chuqr anglashlari lozim ular asosida o'quvchilar to'g'ri va aniq geografik xulosalar qilishlari lozim.

Masalan, o'quvchilar "Iqlim" mavzusini darslik asosida o'rganishayotganda umumlashgan statistik ko'rsatgichlar iqlimni okean, dengizlarga yaqinligirga bog'liq ekanligini aniqlashga imkon beradi.

Turli xil chizma va diagrammalarni tahlil qilish uchun o'quvchilarda tafakkur yuqori darajada rivojlangan bo'lmg'i lozim. Matematika, tarix, chizmachilik, geografiya fanlarini o'rganayotganda o'quvchilar ongida ikki turdag'i aloqalar shakillanadi:

- vaqt va miqdoriy tasavvurlar orasidagi bog'liqlik;
- fazoviy va miqdoriy tasavvurlar orasidagi bog'liqlik.

Chizma va diagrammalar bilan ishlash jarayonida mazkur ikki tur aloqalar bir-biri bilan bog'lanadi, ya'ni bitta chizmani hosil qiladi, chizma va diagrammalar bilan ishlaganda o'qituvchi fanlararo aloqalarga ko'proq e'tibor bermog'i lozim. Avval chizmada minus (manfiy) va musbat qiymatlar kordinata o'qini qaysi tomonida joylashishi haqida tushunchalar beriladi. Shundan so'ng birin ketin iqlimni tahlil qilishga o'quvchilarni undaydi:

- koordinata o'qlari belgisini aniqlash;
- koordinata o'qlarida mashstabni aniqlash;
- chizma yoki diagrammani miqdorini aniqlash;
- chizma yoki diagrammani sifat jihatdan tahlil qilish.

Yuqorida ko'rsatilgan faoliyatlarni eng murakkabi iqlimiylar chizma yoki diagrammalarni miqdoriy va sifatiy tahlil qilishdir. Chizma yoki diagrammani miqdoriy tahlilida miqdoriy ko'rsatgichlar va bog'liqdiklar o'rganiladi. Bunday tahlil o'quvchilarni matematik bilimlariga asoslanadi.

Sifat jihatdan baholashni metodik yo'llaridan biri qiyoslashdir. Agar dars jarayonida iqlimiylar diagrammalarni tushuntirish davomida o'quvchi turli xil iqlimlar va iqlimiylar hodisalar haqida qiyosiy hikoya qilib berishi mumkin.

7-sinf darsliklarida iqlimning o'zgarishi jarayonida umumlashgan statistik ma'lumotlardan foydalanish ko'nikmasi shakillantiriladi. Masalan, namlik koeffitsenti, yalpi quyosh radiatsiyasi, yutilgan quyosh radiatsiyasi, bug'lanuvchanlik. Mazkur tushunchalarni o'rganish o'qituvchidan o'quvchilar bilan muntazam ishlashni talab qiladi.

Har bir yangi ko'rsatgichlarni o'qituvchi alohida-alohida o'quvchilarga mohiyati va ma'nosini tushuntirishi ya'ni qanday aniqlashni va aniqlash tartiblarini ko'rsatishi lozim. Alohida iqlim turlarini o'zlashtirib bo'lganidan so'ng, iqlimni umumlashgan ko'rsatgichlarini aniqlash boshlanadi: ular quyidagi tartibda aniqlanadi:

- quyosh radiatsiyasi quyosh balandligi va bulutlikning turli sharoitida aniqlanadi;

-o'rtacha yillik, eng yuqori va eng past harorat, haroratni yillik o'zgarishini aniqlanadi;

-o'rtacha yillik yog'in miqdori, eng ko'p va kam yog'in miqdori, yog'inni yil davomida taqsimlanishi aniqlanadi;

-havo bosimi va uni mavsumiy o'zgarishi shamollar va ularning asosiy yo'nalishlari hamda kuchi.

Yakka holdagi raqamlarga mutloq ko'rsatgichlarda ixtisoslashgan sonlar qisqaradi. Ular ko'pincha og'irlik, balandlik, chuqurlik, masofa energiya va boshqa o'lchovlarda berilishi mumkin.

Yakka holdagi raqamlarni ayrimlarini esda saqlab qolishlari talab etiladi. O'quvchilar eslab qoladigan raqamlar ko'p bo'lmasligi mumkmn. Ularni ikkita yirik guruhga bo'lishimiz mumkin: tabiiy geografik, iqtisodiy geografik.

Tabiiy geografikrak raqamlarga quyidagilar kirishi mumkin:

-Yer yuzasi haqidagi umumiy ma'lumotlar(eng baland va past nuqtasi, maydoni, materiklar va okeanlar soni) eng katta va kichik okeanlar, dengiz, materik, qit'a , daryo, ko'l, cho'l, tog' va h.k.;

-materiklar haqida umumiy ma'lumotlar (maydoni, eng baland va past nuqtasi, yog'in miqdori, harorat, iqlim mintaqalari soni va h.k.);

- okeanlar haqidagi umumiy ma'lumotlar (maydoni, cho'kmalari, sho'rлиgi, harorati va h.k.);

-iqlim ko'rsatgichlari;

-gidrologik ko'rsatgichlar va h.k.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografik raqamlarga quyidagilar kiradi:

-jahonning umumiy ta'rifi (davlatlar soni, aholi soni, tabiiy resurslar miqdori, jon boshiga to'g'ri keladigan daromad va h.k.)

-aholi haqidagi ma'lumotlar (Jahon aholisi va uning tarkibi shahar va qishloq aholisi, erkaklar va ayollar soni, migratsiya salmog'i, tug'ilish, o'lish, ko'payish);

-tabiiy resurslar va ularning miqdori;

-sanoat va qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlari;

-transport va tashqi iqtisodiy aloqalar, ekspert va import ko'rsatgichlari;

-davlatlar haqidagi ma'lumotlar (maydoni, aholisi, xo'jaligi)

O'quvchilarni raqamlarni yaxshi eslab qolishlari uchun ularni butun son holda berish yaxshi natija beradi. Masalan, Xitoyning maydoni 10 mln km.kv., aholisi 1 miliyardan ortiq.

Dars jarayonida o'quvchilarga berilayotgan raqamlarga ta'rif berilishi lozim. Bunday ta'rif berishning usullaridan biri miqdoriy tasavvurlarni aniqlashtirishdir. Maktab geografiyasida eng keng tarqalgan aniqlashtirish usuli masofani vaqtga o'tkazish uni ifodalash hisoblanadi. Masalan, 100 km masofani turli transport turlari qancha vaqtda bosib o'tishi mumkin.

Iqtisodiy geografiya darslarida xo'jalik tarmoqlarini davlat iqtisodidagi ahamiyatini tushuntirishda aholii jon boshiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmi hisobga olinadi.

Raqamlar bilan ishslashning eng muhim usullaridan biri qiyoslash hisoblanadi. Qiyoslashda o'quvchilar raqamlarni tez eslab qolishadi. Masalan, Tinch okeani maydoni Atlantika okeani maydonidan ikki marta katta. Qiyoslash bilan faqat o'qituvchi emas, o'quvchilar ham shug'ullanishi mumkin, masalan, o'qituvchi o'quvchilarga vazifa berishi mumkin, O'zbekistonni maydoni dunyodagi qaysi davlatlar maydoni bilan bir xil va h.k.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida ko'pincha raqamlar ma'lum bir ko'rsatgichlar bo'yicha guruhlantirilgan bo'ladi. Bunday guruhlantirilgan raqamlar yig'indisiga jadvallar deb ataladi. Jadvallar maktab geografiyasining barcha tarmoqlarida foydalaniladi. Tabiiy geografiya ko'proq quyidagi jadvallardan foydalaniladi:

Yer yuzasida quruqlik va suvlarning taqsimlanishi;

Okeanlar, dengizlar, cho'kmalar, bo'g'izlar jadvallari;

Materiklar va ulardagi daryolar, ko'llar, orollar, cho'qqilar jadvallari;

Iqlim ko'rsatgichlar jadvallari va h.k.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha jadvallardan foydalaniladi:

Davlatlar guruhlar bo'yicha: aholii va uning ko'rsatgichlari; tabiiy resurslari ko'rsatgichlari, sanoat tarmoqlari ko'rsatgichlari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish ko'rsatgichlari, transport ko'rsatgichlari, xalqaro iqtisodiy aloqalar ko'rsatgichlari, ma'muriy birliklar ko'rsatkichlari.

Geografiya ta'limida jadvallar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

Oddiy, guruhlashtirilgan, kombinatsion va boshqa jadvallar.

Oddiy jadvallarda xalq xo'jaligini tarmoqlari bo'yicha rejalashtirish uchun asos bo'ladigan statistik kuzatishlar natijalari ma'lum bir tizimga solinadi.

Bunday jadvallarga markaziy statistika qo'mitasi tomonidan chiqariladigan statistik to'plamlar kiradi. Mazkur jadvallardan O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursini o'rganishda foydalaniladi.

Mazkur jadvaldan har bir viloyatning xo'jaligini rivojlantirish xususiyatlarini o'rganishda ham foydalaniladi.

Guruhlashtirilgan jadvallarda statistik ma'lumotlar ma'lum ir ko'rsatgichlar bo'yicha guruhlantiriladi. Masalan, aholini quyidagi guruhlarga bo'lib ko'rsatish mumkin: shahar va qishloqlar aholisi, erkaklar va ayollar, dehqonlar, ziyorilar, bolalar, o'smirlar, qariyalar va h.k.

Kombinatsion jadvallar murakkabroq bo'ladi. Masalan, ishchi kuchi ixtisosligi bilangina emas, balki jinsi, yoshi bilan ham guruhlashtiriladi. Kombinatsion jadvallar guruhlarini solishtirishga imkon beradi.

Darslikda keltirilgan jadvallardagi statistik ko'rsatgichlarni tahlil qilishga kirishishdan oldin o'quvchilarga tahlilni maqsadini tushuntirish lozim. Jadvallarni tahlil qilish dars jarayonida amalga oshirish lozim. Ularni tahlilini vazifa sifatida bermaslik lozim, chunki jadvallar bo'yicha tushunmovchiliklar tug'ilishi mumkin.

Maktab geografiyasi kurslarida voqeа va hodisalarni statistik tahlildan oldin ularni tarixiy jhatdan asoslab berish lozim. Masalan, iqlim haqidagi statistik ma'lumotlarni tahlil qilishdan avval iqlim hosil qiluvchi omillar haqida nazariy bilimlar berib o'tish lozim. Jadvallarni tahlil qilayotganda statistik ko'rsatgichlarni qiyoslash iqtisodiy geografiya darslarida katta ahamiyatga ega.

Maktab geografiyasi darslarida diagramma va chizmalardan juda ko'p foydalilaniladi. Diagramma va chizmalarda raqamli ma'lumotlar ifodalilaniladi.

Diagramma orqali ma'lum bir ko'rsatgichlarni boshqasidan kattaligi yaqqol ko'rsatish mumkin. Diagramma va chizmalarni chizish usullari bilan o'quvchilar matematika darslarida tanishishadi. Shuning uchun geografiya darslarida to'g'ridan-to'g'ri ularni mohiyati va mazmuniga o'quvchilar diqqatini qaratadi.

Diagramma va chizmalarni tushintirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

-diagramma va chizmalarda nimalar tasvirlanganini o'quvchilarga tushuntiriladi;

-diagramma va chizmalarda qanday tabiiy geografik va iqtisodiy geografik voqeа va hodisalar tasvirlanganligi ochib beriladi;

-diagramma va chizmalarda qanday bog'liqlik yoki qonuniyatni aniqlash mumkinligi tushuntiriladi. Masalan. Tabiiy geografiya darslarida iqlim mavzusini o'rghanishda yer yuzasiga tushayotgan issiqlik miqdorini quyosh nurlarini tushishi burchagiga bog'liqligini ko'rsatuvchi chizma. Bunda quyosh nurlari ekvatoriyal tropik mintaqalarda yer yuzasiga tik tushishi, shuning uchun mazkur mintaqalarda quyosh issiqligini miqdori katta, qutublarda esa quyosh nurlarini tushish burchagi kichik, shuning uchun bu yerlarda yer yuzasiga kelayotgan quyosh issiqligini miqdori kam ekanligi oqibatida qutubiy o'lkalar muz va qor bilan yil davomida qoplanib yotganligi asoslab beriladi. Iqtisodiy igeografiya darslarida diagramma va chizmalar orqali aholini, miniral resurslarni, sanoat va qishloq xo'jaligi ko'rsatgichlarini ifodalash mumkin. Maktab geografiyasida statistik ma'lumotlarni quyidagicha qo'llashi mumkin:

-Statistik ma'lumotlar geografik bilimlarni manba siftida foydalilanilganda;

-O'r ganilayotgan mavzu nazariyasi bilan uning statistik ko'rsatgichlari orasidagi bog'liqlik o'r ganiladi;

-Fanlararo aloqalardan foydalanishda. Masalan, matematika bilan. Bunday aloqalar diagramma, chizma, hisoblash ishlarini amalga oshirganda qo'llaniladi;

- Darslik matnidagi va kartalardagi statistik ma'lumotlardan foydalaniadi;

-Yangi mavzularni o'tishda statistik ma'lumotlardan foydalaniadi;

- O'tilgan darsni mustahkamlashda statistik ma'lumotlardan foydalaniadi.

Statistik ma'lumotlar geografiya ta'limida ikki xil maqsadda ishlataladi:

-Aniq geografik ma'lumot sifatida. Bularga matirik va okeanlarning maydoni, quruqlikning eng baland va past nuqtasi, materiklarning chekka nuqtalari, davlatlarning maydoni, yirik dengiz, ko'llarning maydoni va chuqurligi, yirik daryolarning uzunligi va h.k. lar kiradi. Mazkur statistik ko'rsatgichlarni o'quvchilar yodlab olishlari lozim;

-Geografik bilimlar manbai sifatida. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarida juda ko'p statistik ma'lumotlar jadval diagramma va grafik sifatida berilgan. Ulardan o'quvchilar bilim olish maqsadida foydalanishlari mumkin. Mazkur ma'lumotlarni taxlil qilish asosida o'quvchilar turli xulosalar chiqarishlari mumkin.

Shuning uchun o'qituvchilar o'quvchilarni statistik ma'lumotlar bilan ishslashga o'rgatishlari va tegishli ko'nikmalarni hosil qilishga erishishlari lozim.

## **II.bob. Geografik kartalar va globuslar yordamida mustaqil ishlarni tashkil etish**

### **2.1.Reprodiktiv va izlanuvchan metod**

Ma'lum bir tanish sharoitda yoki ma'lum bir namuna asosida o'quvchilar bilimi va ko'nikmalarini qo'llashga o'rgatadigan metodga reproduktiv metod deb ataladi. Uning asosiy maqsadi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va mustaqil ishlarni bajarishga o'rgatishdir. Mazkur metodni qo'llaganda o'qituvchi bir qolipdagi savollarni ketma-ketlikda tuzishi va unga o'quvchilar javob berishlari lozim. Mazkur metod bilan tabiiy geografiya, iqtisodiy geografiya kurslarida bajariladigan ma'lum bir hududni yoki ishlab chiqarish komplekslarini tavsifini tuzish vazifalari kiradi. Masalan, Farg'ona vodiysiga quyidagi qolipda tabiiy geografik tariff berish mumkin:

- a) geografik joylanishi, b)geologik tuzilishi, v) relefi, g) foydali qazilmalari, d) iqlimi, e) ichki suvlari, yo) tuproqlari, j) o'simligi, i) hayvonot dunyosi, k) tabiiy geografik birliklari.

Iqtisodiy geografik tavsif tuzilishida ham qo'yidagi qolipdan foydalanish mumkin: a) iqtisodiy geografik joylanishi, b) ma'lum birliklari yoki siyosiy kartasi, v) tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari, d) xo'jaligining tarkibiy tuzilishi, y) sanoati, yo) qishloq xo'jaligi, j) transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari.

Bundan tashqari har bir tabiiy geografik yoki iqtisodiy geografik komponentlarni o'rganish bo'yicha ham bir qolipdagi savollar tuzish mumkin. masalan, iqlimi o'rganishda quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

- a) iqlim hosil qiluvchi vositalar, b) qish iqlimi, v) yoz iqlimi, g) yoginlar, d) shamollar, e) fasillar, yo) iqlim mintaqalari.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografik tasvirni asosiy tarkibiy qisimlaridan bo'lgan tabiiy resurslarni o'rganishda quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

- a) Yer resurslari, b) iqlim resurslari, v) suv resurslari, g) tuproq resurslari, d) o'simlik resurslari, e)miniral resurslari, yo) rekratsiya resurslari.

Bu yerda tabiiy resurslarni alohida tarkibiy qismlarini o'rganish uchun bir qolipdagi savollar tuzish mumkin: masalan, miniral resurslarini o'rganishda quyidagi savollar tuzish mumkin:

a) yoqilg'i enirgitika resurslari, b) metalli foydali qazilmalar, v) nometall foydali qazilmalar va h.k.

Mazkur metod bilan ishlaganda o'quvchilardan bilish va ko'nikmalarni ma'lum bir qolipda qo'llash talab etiladi.

Qisman izlanuvchan metodning asosiy maqsadi o'quvchilarda ijodiy ko'nikmalarni hosil qilishdir. O'quvchilarni ijodiy ishga qiziqtirish va o'rgatish muammoli yoki ijodiy vazifalarni ishlab chiqish va ularni dars jarayonida o'quvchilar tomonidan yechishi orqali amalga oshiriladi. Mazkur vazifalarni yechish usullari o'quvchilarga oldindan ma'lum qilinmog'i lozim. Mazkur metodni qo'llaganda o'qituvchining faoliyati quyidagilardan iborat bo'ladi;

-o'qituvchi vazifani ishlab chiqadi va uni o'quvchilarga e'lon qiladi;

-so'ngra o'qituvchi vazifani alohida qismlarga bo'lib yuboradi yoki alohida savollar tuziladi.

O'quvchilar mazkur vazifani yechish davomida quyidagi faoliyatni amalga oshiradi;

-vazifani to'la va har tomonlama tushunishi lozim;

-birin ketin ma'lum bir qismlarga bo'lgan vazifani yechishadi. Bunda ular qisman izlanuvchanlikni amalga oshiradi. Izlanuvchanlik ishlari o'qituvchi rahbarligida va uni boshqarishda amalga oshiriladi.

O'qituvchi Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursida Shimoliy Amerikaning tabiat zonalari mavzusida o'quvchilarga quyidagi savollar berish mumkin: Qadimgi muzliklar Shimoliy Amerika tuproqlariga qanday ta'sir qilganini tushuntirib bering. O'quvchilar maskur savollarga birdaniga javob bera olishmaydi, shuning uchun o'qituvchi uni ayrim qismlarga quyidagicha bo'lib chiqadi:

-muzlar Shimoliy Amerika materigida qanday ishlarni amalga oshirgan?;

-Shimoliy Amerikaning qaysi qismida tuproqlar yosh, shimoldami yoki janubdami?;

-qanday tuproqning qalinligi katta bo'ladi, qadimgilarnimi yoki yoshroqlarinimi?;

-nima sababdan Kanada to'plam Orolidagi tuproqlar yupqa va toshli?

Mazkur savollarga o'quvchilar javob berib bo'lishgandan so'ng o'qituvchi dastlab bergan savolini qaytaradi. Qadimgi muzliklar Shimoliy Amerika tuproqlariga qanday ta'sir etgan. O'quvchilar endi mazkur savolga to'liq javob berishadi. Mazkur metodni qo'llaganda evristik suhbatdan foydalanish katta samara beradi.

O'quvchilarni ijodiy faoliyatga o'rgatadigan metod izlanuvchan metod deb ataladi. Qisman izlanuvchan metod yordamida o'quvchilar o'qituvchi yordamida qisman ijodiy ish olib borish ko'nikmasiga ega bo'lishadi. Izlanuvchan metoda esa o'quvchilar mustaqil ravishda izlanish olib borishadi. Bunday ishlarni amaliy geografiya kurslarida, o'lkashunoslik bo'yicha olib boriladigan ishlarda qo'llaniladi. Mazkur vazifalar umum ta'lim maktablarida asosan o'quv sayohatlarida, hamda mustaqil ishlarni bajarish davomida bajariladi. Malalan, o'quv sayohatiga chiqilganda hududni o'simliklarini o'rganish, hududni xo'jaligini o'rganish va h.k. Mustaqil ishlar bajarish davomida quyidagi muammolarni yechish mumkin. Orol muammosini hal qilish yo'llari, Toshkentdan Farg'ona vodiysiga temir yo'l o'tkazish yo'nalishini aniqlash, O'zbekistonda suvni tejash usullarini asoslash, O'zbekistonda shakar ishlab chiqarishni asoslab berish, O'zbekistonda mashinasoslikni rivojlantirish muammolarini hal qilish va h.k.

Muammoli vazifalarni yechishda faqat tabiat va jamiyat to'g'risida yangi bilimlarnigina topib qolmasdan maskur muammoni yechishning yangi samarali yo'llarni ham qidirish lozim. Bu esa o'quvchilarni ijodiy tafakkurini rivojlantirishga, yangi metodlarni o'rganishga va ularda ijodiy faoliyatni ko'nikmalarni shakillantirishga yordam beradi. Izlanuvchan metodni qo'llaganda o'qituvchining vazifasi muammoli vazifani ishlab chiqish va ularni o'quvchilar oldiga qo'yishdan iborat. O'quvchilarni vazifasi esa mazkur muammoni qabul qilish, o'ylab ko'rish va yechishdan iborat. Demak reproduktiv, qisman izlanuvchan va izlanuvchanlik metodlari bevosita mustaqil mashg'ulotlar jarayonida bajariladi. Mustaqil mashg'ulotlar odatda o'quvchilarni topshirig'iga binoan o'qituvchini ishtirokisiz amalga oshiriladi. Mustaqil ishlarning asosiy belgilari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: og'zaki javob, yozma ish, chizma ishlari, kartografik ishlar va h.k.

Mustaqil ishlar uchun vazifalar ikki turga bo'linadi: bir qolipdagi, muammoli yoki ijodiy.

Bir qolipdagi vazifalar reproduktiv metodga kiradi, bunda o'quvchilardan o'xshash o'quv jarayonida bir qolipdagi savollarga javob berish talab etiladi.

Iqtisodiy yoki muammoli vazifalarni yechish qisman izlanuvchan va izlanuvchan metodlar yordamida amalga oshiriladi. Maskur metodlar o'quvchilardan bilim va ko'nikmalarni yangi o'quv sharoitida qo'llashni va mustaqil fikrlashni talab etadi. Bir qolipdagi vazifalar yangi bilimlarni olishga va ilgari olgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga imkon beradi. O'qitish jarayonini har bir bosqichida unga mos keluvchi metodlar tanlansa o'qitish yaxshi samara beradi.

1.Eng qisqa yo'l magistralini tuzing. Uni amalga oshirish uchun hozirgi davrda qanday siyosiy va iqtisodiy omillar to'sqinlik qilmoqda.

2.Nima uchun qo'ng'ir ko'mirni uzoqqa olib borish samara bermaydi, shuning uchun IESlar ko'mir koniga yaqin quriladi.

3.Nima uchun oxirgi davrlarda metallurgiya zavodlari dengiz qirg'oqlariga yaqin qurilmoqda?

Bunday vazifalarni qo'yilishi iqtisodiy geografiya fanidagi mavzu ilmiy muammolarga asolanadi (xo'jalikning hududdiy tarkibi, uni aniqlaydigan omiilar, ichki va tashqi omillarni ishlab chiqarish kuchlarini joylanishiga ta'siri va h.k).

1.Turon bosqichlardan iborat bo'lgan muammolarni yechishga o'quvchilarni jalg qilish katta ahamiyatga ega. Mazkur bosqichlar quyidagilardan iborat bo'lisi mumkin. Ma'lumotlarni yig'ish (kartalar, adabiyotlar, statistik ma'lumotlar va o'lakashunoslik ishlarida yig'ilgan ma'lumotlar asosida), yig'ilgan ma'lumotlarni tartibga solish (kartalar, diagrammalar, chizmalar, jadvallar tuzish), yig'ilgan ma'lumotlarni tartibga solish ( kartalar, diagrammalar, chizmalar, jadvallar tuzish), tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa ishlab chiqish.

2. Sharqiy Yevropa platformalarida joylashgan Rossiya tekisligini relefni shakillanib bo'lgan deyish mumkinmi?

3.Afrika platformasida joylashgan cho'llarning relefni shakillanib bo'lgan deb hisoblash mumkinmi?

4.Agar Qozog'iston pasi tog'lar ko'tarilib, uning balandligi 5-6 ming metrga yetsa O'zbekistonda qanday o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin?

5.Sibir daryolarini bir qismini O'rta Osiyo tomon oqizilsa Sibir tabiiy sharoitida qanda o'zgarishlar sodir bo'ladi?

6.Litosferani vulkanlar otilib turgan qismlarida qanday o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin?

7. Nima uchun Antraktida tabiatи juda ham sovuq?

Mazkur muammolar geografik qobiqning bir butunligini ifodalaydi va geografik qobiqning bir qismini o'zgarishi boshqa qismini ham o'zgarishiga olib kelishini asoslab beradi.

Iqtisodiy geografiya. 1. Toshkentdan Farg'ona vodiysiga quriladigan temir yo'l magistralini loyihasini tuzing. Bunda qanday tabiiy va iqtisodiy omillar mavjudligi va ularni qanday hisobga olinishini asoslab bering.

2.O'zbekistonni dunyo okeaniga chiqishida gidrosfera mavzusini o'tmasdan avval o'quvchilarga tog' va materik muzliklari haqida muammoli vaziyatlarni qo'yib bo'lmaydi yoki bo'lmasa atmosfera mavzusini o'tmasdan turib shamollar haqida muammoli vaziyatni tashkil qilib bo'lmaydi.

Ijodiy fkrlarning birinchi bosqichi bo'lib muammoni aniqlash va uni shakillantirishdir. Muammoni ifoda qilishni shakillari bo'lib muammoli savol, muammoli masala, muammoli vazifa hisoblanadi. Muammoli o'qitishning asosiy belgisi bo'lib muammoni yechish orqali o'qitishdir.

Har bir geografiya kursi bo'yicha muammoli vazifalar tizimi ishlab chiqilmog'i lozim. Ular didaktik maqsadlarga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linishi mumkin: yangi mavzuni o'rganish, bilimlarni nazorat qilish, olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash.

## **2.2. Geografik kartalar yordamida mustaqil ishlarni tashkil etish**

Geografik kartalarda turli tuman voqeа va hodisalar tasvirlangani uchun ular juda xilma-xil bo‘ladi. Kartalar geografiya fanining hamma sohalarining eng asosiy qismidir. Kartashunoslikda quyidagi tushunchalar uchraydi:

**Tarx reja** – joyning yirik miqyosda (5000 va undan kattaroq) tuzilgan chizmasidir. Chizmada maydoni uncha katta bo‘lmagan kichik-kichik joylar tasvirlanadi.

**Karta**-Yer yuzasini kichraytirilib va umumlashtirilib shartli belgilar bilan tekislikka tushirilgan tavsiridir. Ularda tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy voqeа va hodisalar tasvirlanadi. Ular orqali joyning tuzilishi, relefi, o‘simplik qoplami, ko‘llari, qishloqlar, jihozlar va korxonalarining joylanishi aniqlanadi.

**Kosmosurat**-Yerning va boshqa sayyoralarning kosmik sxemalari yordamida olingan tasviridir. Ular fanning va xo‘jalikning turli sohalarida keng qo‘llaniladi. Har bir tarx, karta va kosmo va aerosurat ma’lum miqyosda tuziladi.

**Masshtab**-bu karitadagi chiziqning uzunligini Yer yuzasidagi shu chiziqqaga mos keladigan haqiqiy uzunlikka nisbatidir. U kartadagi tasvir necha marta kichraytirilganini ko‘rsatadi. Masalan: kartada daryoning uzunligi yoki haqiqiy uzunligi 10 km yoki 1000000 sm. Demak, kartaning masshtabi 1:1000000. masshtabilar sonli, chiziqli va so‘zli bo‘ladi. Sonli masshtab kasrdan iborat, uning surati 1 ga teng, maxraji esa kartada tasvir necha marta kichraytirilganini ko‘rsatadigan son bo‘ladi. Masalan, 1:1000 bu tasvirni ming marta kichraytirilganini ko‘rsatadi. Chiziqli masshtab-bu teng bo‘laklarga bo‘lingan to‘g‘ri chiziqdir. Har bir bo‘lak qancha masofaga tengligi uning ustiga yozib qo‘yiladi. So‘zli masshtab kartadagi 1 sm masofa haqiqatda qanchaga tengligini ko‘rsatadi. Masalan, 1 sm dan 10 kmgacha.

**Loyihalar (proyeksiyalar)**-bu Yer yuzasining kartada tasvirlash usulidir. Yer dumaloq bo‘lganligi tufayli uni tekislikda tasvirlanayotganda ma’lum bir xatoliklarga yo‘l qo‘yiladi. Bunday xatoliklarga asosan maydonni, uzunlik va burchaklarni tasvirlayotganda yo‘l qo‘yiladi. Shuning uchun turli xil (teng burchakli, teng maydonli, teng masofali va aralash loyihalar) qo‘llaniladi.

**Shartli belgilar**-voqeа va hodisalarni ma'lum bir belgilar yordamida kartada tasvirlanishidir. Masshtabli shartli belgilar yordamida voqeа va hodisalar haqiqiy o'lchamlari bilan tasvirlanadi. Masshabisiz shartli belgilar bilan kartalarning masshtabida ko'rsatib, bo'lmaydigan voqeа va hodisalar tasvirlanadi (TETS, kon, shakllar, aholi yashaydigan joylar). Chiziqli shartli belgilar bilan daryolar, yo'llar, chegaralar ko'rsatiladi. Tushuntirish belgilari bilan daryo oqimining yo'nalishi, o'rmondagi daraxtlarning turlari ko'rsatiladi. Bundan tashqari yozuvli, harfli, sonli shartli belgilar ham bo'ladi.

Geografiya kartalari hududiy ko'lamiga, mazmuniga, masshabiga, nimaga xizmat qilishiga, katta-kichikligiga va boshqa belgilarga qarab bo'linadi. Kartalar ixtisosiga qarab umumiyligini geografik va maxsus kartalarga bo'linadi.

Umumiyligini geografik kartalar yirik masshtabli (topografik) kartalarga, o'rtacha masshtabli, mayda masshtabli kartalarga bo'linadi. Maxsus kartalarga dunyo kartalari: iqlim kartasi, tabiat zonalari kartasi, o'simlik kartasi, foydali qazilmalar kartasi: tuproq kartasi, aholi zichligi kartasi, aloqa yo'llari kartasi va boshqa kartalar, sanoat qishloq xo'jaligi va transport tarmoqlari kartalari va boshqalar kiradi. O'quv jarayonida kartalarga va stolga qo'yiladigan kartalarga bo'linadi.

Devoriy kartalar, asosan darsda materialni bayon etayotgan vaqtida ko'rsatish uchun, takrorlash mashq qilish va o'quvchilarning bilimlarini tekshirish vaqtida foydalilaniladi. Devoriy kartalar odatda ancha uzoqdan o'qitiladi. Shuning uchun ham bunday kartalar katta o'lchamda nashr etiladi.

Stolda foydalilaniladigan kartalar darslikka ilova qilingan kartalar, atlas kartalar, darslik matndagi kartalar ba'zan esa ayrim kartalardan iborat bo'ladi. Stolda foydalilaniladigan asosiy kartalar bo'lgan mustaqil darsliklarga ilova qilib berilgan kartalar devoriy kartalar kabi rangdor bo'ladi. Stolga qo'yiladigan barcha kartalar, devoriy kartalardan farq qilib, o'quvchilarning sinfda va uyda individual ishlari uchun foydalilaniladi. Bu kartalar yaqindan qarab o'qishga mo'ljallangan va shunga ko'ra o'lchami kichik va devoriy kartalarga qaraganda masshtabi ham mayda bo'ladi.

Darslik matnidagi kartalar ilova qilib berilgan kartalardan farq qilib, asosan bir rangdagi maxsus tabiiy va iqtisodiy karta-sxemalardan iborat bo'ladi. Ularning

mazmuni darslikning tegishli matniga moslashadi. Geografiya o‘qitishda globus o‘ziga xos kartografik quroq hisoblanadi. Katta va kichik globuslar bor. Katta globuslar butun sinfga ko‘rsatish uchun, kichik globuslar esa har bir o‘quvchining kartada mustaqil ishlayotganida foydalaniladi. Lekin bunday kartalar qimmat bo‘lganligidan maktablarda hozircha ulardan kam foydalaniladi.

Har bir geografik karta kartografik turdan, quruqlik va suvlarning muayyan masshtabda chizilgan yozuvlaridan, shartli belgilardan, geografik nomlar va raqamlardan iboratdir. Shunga ko‘ra o‘quvchilarning geografik karta haqidagi bilimi kamida quyidagi shartlarni o‘z ichiga olishi kerak:

1.Dasturda ko‘rsatilgan geografik nomlarni bilish va tegishli kartografik tasavvurlar bo‘lishi.

2.Kartaning shartli belgilarini bilish va kartaning tuzilishini tushunish kerak.

Buning ma’nosи shuki, o‘quvchilar eng avval, dasturda ko‘rsatilgan geografik obektlarning nomlarini esda tutishlari, ularning geografik o‘rnini va kartada bir-birlariga nisbatan joylashishini tasavvur eta olishlari, ularni kartadan topa bilishlari va to‘g‘ri ko‘rsata olishlari kerak. O‘quvchilar, shuningdek, kartaning eng muhim yozuvlari tasavvur eta olishlari lozim.

Kartaning tuzilishi to‘g‘risida eng boshlang‘ich bilimga ega bo‘lmasdan turib, ya’ni kartaning voqelikni aks ettirishini tushunmasdan, uning masshtabini, undagi yo‘nalishlarni, kartografik turning ahamiyatini tushunmasdan turib kartani chinakam bilib bo‘lmaydi. Uslubiyotda kartani o‘qiy olish deganda hududni va ayrim geografik obektlarni karta asosida ta’riflab bera bilish tushuniladi.

XIX asrning oxiridagi mashhur uslubiyotchi A.Brizgalov o‘quvchilarga kartani o‘qiy olishni o‘rganishda o‘qituvchining vazifalari mana bunday obrazli qilib ifoda etgan edi: “...Qani endi o‘quvchi kartaga, masalan, musiqachi o‘z notalariga qanday munosabatda bo‘lsa, shunday munosabatda bo‘lsa, ya’ni u biron-bir mamlakatning kartasiga ko‘z tashlar ekan, kartada berilgan geografik ma’lumotlardan shu mamlakat aholisining hayoti to‘g‘risida har holda to‘g‘ri xulosalar chiqara oladigan bo‘lsa. Kartani tashkil etadigan geografik belgilar shunday ma’lumotlarga aylanishi kerakki, o‘quvchi bu ma’lumotlar asosida,

musiqachi nota belgilari va uning bir guruhini to‘plab, o‘z ongida muayyan tovushlar yig‘indisini hosil qilgani kabi o‘z xulosalarini chiqara olsin...”.

**O‘quvchilarini kartani tushunishga o‘rgatish.** Karta yer yuzasining tekisligidagi umumiy juda kichraytirilgan tasviri bo‘lganligidan odatda bir vaqtning o‘zida ko‘rish mumkin bo‘lmaydigan juda katta hududni ko‘ra olishga imkon beradi. Karta Yer yuzasining boshqa tasvirlaridan farq qilib, kartaga tushirilgan obektlar to‘g‘risida matematik jihatdan to‘g‘ri ma’lumotlar beradi.

O‘quvchilar kartaning tuzilishini va uning voqealikni aks ettirishini to‘g‘ri tushunishlari uchun kartada joyning tasvir etilishiga o‘quvchibalarni asta-sekin o‘rgata borish kerak. Maktabda geografiya o‘qitish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarini karta tuzilishini tushunishga o‘rgatishning eng to‘g‘ri yo‘li-maktab atrofidagi joyda oriyentirovka qilishdan reja olishga, rejadan esa kartaga o‘tishdir, bu izchillik bilan bo‘lishi kerak. Dastavval bolalar rejani tushunishga tayyorlangan bo‘lishlari kerak. Buning uchun ular quyidagilarni izchillik bilan o‘zlashtirishlari lozim: joyda oriyentirovka qilish, joyda masofalarni o‘lchash va ularni masshtab asosida chizma chizish, chiziq yo‘nalishlar chizish. O‘quvchilarning reja bilan bevosita tanishishlari uch bosqichdan o‘tish lozim: dastlab kichikroq maydonning (sinfning, maktabning) chizma chizish, so‘ngra kattaroq maydonning ko‘z bilan chamalab rejasini olish va shu asosda topografik reja bilan ishslash.


Karta boshqa ko‘rsatmali qurollar bilan shu bilan farq qiladiki, unda tabiiy va ijtimoiy hodisalar xaqiqiy ko‘rinishda emas, balki shartli belgilar asosida ko‘rsatiladi. Shu sababli kartani to‘g‘ri tushunish uchun o‘quvchilarini obektlarning o‘zi bilan oldindan tanishtirish zarur.

**Karta o‘qishga o‘rgatish va kartalar bilan ishslash usullari.** O‘quvchilar karta o‘qish ko‘nikmasini asta-sekin butun geografiya kursi davomida geografik materialni o‘rganish bilan parallel ravishda egallaydilar.

O‘qish jarayonida geografik bilimlar kengayadi va chuqurlashadi. Shu bilan birga karta o‘qish ko‘nikmasi ham takomillasha borishi kerak. Maxsus tabiiy va iqtisodiy kartalar umumiy geografik kartalarga qaraganda o‘qish uchun murakkabroqdir. Shuning uchun bu sohada ham muayyan izchillik bo‘lishi zarur:

# QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIY KARTA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA  
QASHQADARYO VILOYATINING SALMOG'I  
(foizda, 2011 y.)



Sanoatning asosiy tarmoqlari:  
elektrnergetika, yoqilg'i (neftli va gazli), kimyo va  
gaz-kimyo, qurilish materiallari, yengil, oziq-ovqat  
Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari:  
donchilik, paxtachilik, bog'dorchilik va uzumchilik,  
go'sht-sut chorvachiligi, qo'yichilik, ipakchilik



SHAHAR VA QISHLOQ  
AHOLISINING SONI  
(foizda, 2012 y.)

Jami 2 777,8 ming kishi
43,3 shahar 56,7 qishloq



1-rasm. Qashqadaryo viloyati iqtisodiy kartasi

dastlab o‘quvchilar umumiy geografik kartalar bilan tanishishlari kerak, so‘ngra esa maxsus kartalar bilan ishlashga o‘tishlari lozim.

Karta o‘qish maxsus tabiiy va iqtisodiy kartalardan (odatda darslik matnidagi kartalar yoki atlas kartalaridan) tobora ko‘proq foydalanish yo‘li bilan ham murakkablashtiriladi. Bu kartalardan 5-sinf kursidan boshlab foydalaniladi, lekin yuqori sinflarda ularning roli osha boradi va bu kartalar darslarda yangi material bayon etiladigan suhbatda asosiy qo‘llanma hisoblanadi.

Karta o‘qiy olish ko‘nikmasi yetarli darajada taraqqiy etgandan keyin, suhbatni boshqacharoq o‘tkazish mumkin. O‘qituvchi har bir geografik obektni dengiz, tog‘ tizmasi, daryo va boshqalarni kartaga qarab ta’riflash rejalarini beradi, o‘quvchilar bu rejalarini bilishi zarur. Darsda javob berish uchun chaqirilgan o‘quvchilar bu reja bo‘yicha devoriy kartalar asosida ulardan o‘qiy olgan hamma narsasini hikoya qilib beradilar, boshqa o‘quvchilar esa o‘rinlarida turib qo‘srimchalar kiritadilar. Karta asosida qilingan suhbatdan keyingina, o‘qituvchi kartada ko‘rsatilmagan ma’lumotlarni gapirib beradi.

Sinfda ishlash bilan birga karta asosida obektlarga mustaqil ravishda ta’rif berish yuzasidan uy vazifalari ham berish mumkin.

**Darslik va atlasning maxsus kartalari bilan ishlash.** Maktab darsliklarida va atlaslarida juda ko‘p turli-tuman maxsus kartalar bor. O‘qituvchi suhbat uslubi bilan yangi material bayon etar ekan, bu kartalardan bilim manbai sifatida foydalaniib, bu kartalar asosida o‘quvchilar qiladigan ishni tashkil etadi. Maxsus kartalarning shartli belgilari juda xilma-xildir, o‘quvchilar bu belgilarning hammasini umumiy geografik kartalardagi shartli belgilarni esda tutganlariday eslab qola olmaydilar, lekin ular maxsus kartadagi bu belgilarni tushunishlari shart.

Maktab geografiyasida obektlar belgilari bilan ko‘rsatilgan kartalardan eng ko‘p foydalaniladi, bunday kartalarda ayrim obektlar turli ko‘rinishdagi va har xil kattalikdagi shakllar yordamida manzillar bo‘yicha tasvirlanadi. Masalan, foydali qazilmalar knlari kartalari, mamlakatlarning va tumanlarning sanoat markazlari kartalari ana shunday kartalardir.

Maxsus kartalarning ikkinchi turi-kartogdiagrammalardir. Kartodiagrammalarda ham, obektlar belgilar bilan ko‘rsatiladigan kartalardagi kabi hodisalarning shakllar

katta-kichikligi miqyosli ko‘rsatilgan. Kartodiagrammaga O‘zbekiston iqtisodiy tumanlarida qoramollar soni va ekin maydonlari kartalari, viloyatlari va respublikalari bo‘yicha sanoat joylashishining kartalari va hokazolari misol bo‘la oladi.

Kartaning uchinchi turi-nuqtali kartalardir, bunday kartalarda muayyan joylardagi hodisalar bir xil miqdorga ega bo‘lgan nuqtalar yordamida tasvirlanadi. Nuqtali kartalar bo‘yicha, asosan hodisalar eng ko‘p tarqalgan tumanlarni ajratib ko‘rsatadigan savollar qo‘yiladi, masalan: “Qaysi tumanlarda ekin eng ko‘p ekiladi?”, “Asosiy dehqonchilik rayonlarini ko‘rsatib bering?” va h.k.

Kartaning to‘rtinchi turi-kartogrammalardan keng foydalaniladi. Bularda shtrixlar yoki turli bo`yoqlar bilan hodisaning zikh yoki siyrakligi ko‘rsatiladi. Masalan, mamlakat aholisi zichligini ko‘rsatadigan karta bo‘yicha quyidagi savollarni berish mumkin: “Aholi qayerlarda eng zikh yashaydi?”, “Aholi qayerlarda eng siyrak yashaydi?”, “Aholi zichligi qaysi tomonga qarab o‘zgaradi .

Maxsus kartalarning beshinchi turi ranglar bilan ko‘rsatiladigan kartalardir. Bunday kartalar tasvirlanadigan hudud doirasida miqdoriy farqlarni ko‘rsatadi. Shu maqsadda butun hudud bir necha qismlarga bo‘linadi, bu qismlarning har biri turli shtrixlar bilan chiziladi yoki turli bo‘yoqlar bilan bo‘yaladi, yoki nomerlanadi. Bu kartalar bo‘yicha savollar, asosan bo‘lib ko‘rsatilgan hudud qismlarining holatini va chegaralarini ko‘rsatishga qaratilgandir; masalan, o‘simliklari kartasi bo‘yicha quyidagi savollar berilishi mumkin: “Tundra zonasi dunyoning qaysi qismida joylashgan?”, “O‘rmon-dashtning chegaralari qayerlardan o‘tadi?” va h.k. Areal kartalari ranglar bilan ko‘rsatiladigan kartalarga o‘xshaydi. Bunday kartalarda biron hodisa tarqalgan yozuvsiz shtrixlar yoki ranglar bilan ko‘rsatilgan.

Kartalarning yettinchi turi-izonliniyalar kartalaridir. Bunday kartalarda biron hodisaning miqdoriy qiymati bir xil bo‘lgan joylar chiziqlar bilan birlashtiriladi. Bunday kartalarga masalan, izotermalar kartalari misol bo‘la oladi. Masalan, izotermalar kartasini tahlil qilayotganda mana bunday savollar berish mumkin: “8 gradus yanvar izotermasi qaysi joylardan o‘tadi?”, “Bu izoterma qaysi tomonga qarab boradi?”.

Nihoyat maxsus kartalarning sakkizinchi turi-harakat chiziqlari kartalaridir. Masalan, tashiladigan yuklar kartasi, shamollar yo‘nalishi kartasi, oqimlar kartasi, dengizda tashiladigan yuklar kartasi bo‘yicha quyidagi savollar berilishi mumkin: “Dunyoda neft dengizlar orqali qayerlardan qayerlarga tashiladi?”, “Qora dengizning Kavkaz sohilidagi portlaridan Ukraina portlariga qanday yuklar tashiladi?” va boshqa yuklar hamda dengizlar bo‘yicha ham xuddi shunday savollar berish mumkin.

Kartalarni taqqoslash. Karta o‘qish turli xil kartalarni bir-biriga taqqoslashni ham o‘z ichiga oladi. Bu o‘quvchilarga turli geografik hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni ochib berishga va eng sodda geografik qonunlarni aniqlashga yordam beradi. Kartalar suhbat jarayonida taqqoslanadi, bunda o‘quvchilar atlasdan shuningdek darslik matnidagi kartalardan hamda darslikka ilova qilib berilgan kartalardan foydalanadilar.

O‘quvchi suhbat davomida o‘quvchilarga savollar beradi, ular bu savollarga javob berish bilan kartalar asosida faktik ma’lumotlarni aniqlaydilar va ularni bir-birilariga taqqoslab, xulosalar chiqaradilar. Yanvar va iyul izotermalari kartalarini va yog‘in-sochinlar kartasi, shuningdek, Sharqiy Yevropaning tabiiy kartasini taqqoslash asosida Sharqiy Yevropada asosiy iqlim xususiyatlarini ochib berish uchun o‘tkaziladigan suhbatni misol qilib keltiramiz.

O‘qituvchi: Yanvar izotermalari kartasiga qarang. Sankt-Peterburg orqali yanvarning qanday izotermasi o‘tadi? (O‘quvchilar Sankt-Peterburg orqali o‘tadigan yanvar izotermasini topadilar:  $-8^0$ ).

O‘qituvchi: Sankt-Peterburg qaysi geografik kenglikda joylashgan? (O‘quvchilar Sankt-Peterburgning geografik kengligini topadilar:  $60^0$  shimoliy kenglik).

O‘qituvchi: Kartaga qarang. Sharqiy Yevropa shaharlardan yana qaysilari taxminan shu geografik kenglikda joylashgan?) O‘quvchilar kartaga qarab, oltmishinchchi parallel Vologda va Perm yaqinidan aniqlaydilar).

O‘qituvchi: Kartaga qarab, bu shaharlар yaqinidan yanvarning qanday izotermalari o‘tishini aniqlang. (O‘quvchilar Volga yaqinidan  $-12^0$  yanvar izotermalari, Perm yaqinidan  $-16^0$  yanvar izotermasi o‘tishini topadilar).

O‘qituvchi: Bundan qanday xulosa chiqarish mumkin? (O‘quvchilar sharqqa tomon yurgan sari bir xil geografik kenglikning o‘zida yanvar harorati pasaya boradi deb javob qaytaradilar).

O‘qituvchi: Iyul izotermalari kartasiga qarang. Taxminan bir xil geografik kenglikdagi ana shu uch shahar qaysi iyul izotermalari o‘rtasida joylashgan? (O‘quvchilar kartaga qarab bu shaharlar  $16^0$  va  $20^0$  iyul izotermalari o‘rtasida ekanligini, ya’ni u yerda iyul harorati  $+18^0$  ekanligini aniqlaydilar).

Kartalarni taqqoslash yuzasidan beriladigan topshiriqlar o‘quvchilarga uyda bajarib kelish uchun ham topshirilishi mumkin. Kartadan geografik nomlar va atamalarni o‘rganish. Kartadan geografik nomlar va atamalar o‘rganilayotganda o‘qituvchining asosiy vazifasi dasturda ko‘rsatilgan geografik obektlar nomlari minimumini va ularning kartada joylashishini o‘quvchilar xotirasida mustahkam qoldirish, shuningdek bu nomlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga va yozishga o‘rgatishdir.

Geografik nomlar va atamalarni mustahkam o‘zlashtirishning yana bir sharti karta bilan o‘tkaziladigan ishning to‘g‘ri tashkil qilinishidir, bu ish xotiraning xilma-xil turlaridan: ko‘rish xotirasi, harakat xotirasi va so‘z ma’no xotirasidan foydalangan holda o‘tkazilishi kerak. Unutib qo‘ymaslik maqsadida geografik nomlar va atamalar muntazam ravishda takrorlanib turiladi, talaffuz etish va to‘g‘ri yozishda o‘quvchilar qiynaladigan geografik nomlarni takrorlab turish ayniqsa muhimdir. Karta va geografik nomlar va atamalarni o‘zlashtirishda karta bilan ishlaganda turli yasama didaktik materiallardan: rangli bayroqchalardan, shartli belgilardan, jadvallardan, rangli iplardan, strelkalardan va boshqalardan foydalanish anchagina foyda beradi.

Kartadan ko‘rsatayotganda muayyan qoidalarga rioxalarga qilish zarur. Kartaga nisbatan to‘g‘ri turish, odatda kartani to‘smasdan yorug‘ kelayotgan tomonga qarab turish lozim. Kartadan faqat ko‘rsatkich tayoqcha bilan ko‘rsatish kerak, bunda kartaga juda ham yaqin kelmaslik va ko‘rsatilayotgan joylarni to‘sib qo‘ymaslik uchun tayoqchaning uchidan ushslash darkor.

Sinf doskasiga kartachizmalar chizish. Kartani o‘zlashtirishga yordam beradigan uslubiy uslublardan biri sinf doskasiga kartachizmalar chizishdir.

O‘qituvchilar darsda materialni bayon etish vaqtida sinf doskasiga shu material mazmuniga to‘g‘ri keladigan kartochizma chizadi. Masalan, biron-bir mamlakatning sanoatini gapirib berayotganda o‘qituvchi shu mamlakat yozuvsiz kartasiga sanoat markazlarini chizadi, bu markazlarning ixtisosini belgilar bilan ko‘rsatib qo‘yadi. Kartachizmaga esda qoldirilishi kerak bo‘lgan eng muhim ma’lumotlarga kiritiladi, bu bilan materialdagi eng muhim joylar alohida qayd qilinadi. Biroq maqsad faqat kartachizmalar chizish bo‘lmasisligi kerak, kartachizmalar chizish haqiqiy karta o‘rnini bosmasdan, o‘qitish vositasigina bo‘lib xizmat qiladi. Kartachizmaning asosiy vazifasi, asosan obektlarning bir-biriga nisbatan joylashishini ko‘rsatib berishdir. Shuning uchun chizmada haddan tashqari aniqlik talab etilmaydi, gradus to‘ri ham kerak emas, yozuvsiz kartalar esa juda sodda ko‘rsatilishi mumkin.

Sinf doskasiga kartachizmalar chizish usullar chizmaning murakkabligiga qarab turlicha bo‘lishi mumkin. Eng sodda chizmalar materikning qiyofalarini, mamlakatlarning va tumanlarning chegaralarini aniq chizish talab qilinmaydigan chizmalardir. Materiklarning har holda murakkab yozuvsiz kartalari, mamlakatlar va tumanlarning chegaralari ko‘rsatiladigan kartachizmalarni chizish qiyinroq.

Masalan, o‘qituvchi bir kartachizmada geografik muhitning turli elementlarini, relef, iqlim va o‘simliklarni ko‘rsatmoqchi deylik. Bu vaqtda o‘qituvchi tog‘ tizmalarini bir xil rang bilan izotermalarni ikkinchi xil rang bilan o‘simlik viloyatlarining chegaralarini esa uchinchi xil rang bilan ko‘rsatadi. Xuddi shu yo‘l bilan birgina kartachizmaga mamlakatning yoki tumanning tabiiy geografik sharoitlarini va iqtisodiy xususiyatlarini singdirish mumkin.

**Yozuvsiz kartalar bilan ishlar.** O‘quvchilar yozuvsiz kartalar bilan darsda yangi material bayon etilayotganda bilimlar mustahkamlanayotganda va tekshirilayotganda, amaliy mashg‘ulotlarda va uyda uy vazifasini bajarayotganlarida ishlaydilar. Kursda o‘rganiladigan obektlarning bir qismi (mamlakatlarning chegaralari, qirg‘oq chiziqlari, daryolar va ko‘llar eng yirik shaharlar). Yozuvsiz kartada belgilab qo‘yilgan bir qismi esa unda ko‘rsatilmagan. Belgilangan obektlarga qarab o‘quvchilar kerakli yozuv yoki shartli belgini to‘g‘ri topishi, uni aylantirib qalam bilan chizib chiqishi lozim. Masalan, dunyo okeani

qit’alaridagi daryolar o‘rganilayotganda o‘quvchilar ko‘rsatilgan daryolarni yozuvsız kartadan topadilar, ularni belgilab chiqadilar va nomlarini yozib qo‘yadilar.

Yozuvsız kartalar ustida ishlashning ikkinchi turi- o‘quvchilarning yozuvsız kartalar asosida har xil kartachizmalar tuzishidir. Masalan, iqlimi o‘rganilayotganda yozuvsız kartalarga izotermalar, shamollarning yo‘nalishi va boshqalar, o‘simliklar va hayvonot dunyosi o‘rganilayotganda esa tabiat zonalarining chegaralari chizib qo‘yiladi.

Yozuvsız karta bilan ishlash geografik obektlarning nomlarini va ularning kartadagi geografik o‘rnini bolalar xotirasida mustahkamlash, shuningdek, geografik hodisalarни aniqlash uchun muhim vositadir. Yozuvsız karta bilan ishlash geografik nomlarni to‘g‘ri va to‘g‘ri talaffuz qilishga yordam beradi. Kartadagi chegaralar qalam bilan: chegaralar qizil qalam bilan, dengiz va ko‘llar ko‘k qalam bilan chiziladi, shaharlarning punsonlari esa o‘ziga qolaveradi.

Tog‘ tizmalari jigarrang yoki qora qalam bilan uzun-uzun chiziqlar shaklida, qirlar va yassi tog‘liklar esa berk yozuvsız kartalar shaklida chiziladi. Yozuvsız kartalarni bo‘yayotganda shartli belgilar va ranglar, odatda umumiyl qabul qilingan shartli belgilarga va ranglarga o‘xhash bo‘lishi lozim.

Globuslar, ularning ahamiyati va geografiya o‘qitishda globuslarda foydalanish. Globus-(lotincha-dumaloq) Yerning kichraytirilgan nusxasi, unda Yer yuzasi, materiklar va okeanlar, tog‘lar va tekisliklar shakli xatosiz, aniq va to‘g‘ri tasvirlanadi. Birinchi marta globus Beruniy tomonidan X – asrda, Bexaym tomonidan XY-asrda yasalgan.

Yer sharining kichraytirilgan modeli bo‘lmish globus kartografik qo‘llanma sifatida kartaga qaraganda bir qancha muhim afzalliklarga ega. Globusda ayrim punktlar o‘rtasidagi masofani chizishda xatoga yo‘l qo‘yilmaydi va maydonlarning bir-biriga nisbatan to‘g‘ri ko‘rsatiladi. Uning miqyosi barcha yo‘nalishda doimiydir. Globusdagi barcha yozuvsız kartalar va shakllar Yer sharidagi haqiqiy holatiga o‘xshaydi. Globus bu xususiyatlari tufayli o‘quvchilarda to‘g‘ri hududiy tasavvurlar hosil qilishda va ko‘pgina mashqlar o‘tkazishda nihoyatda qimmatli o‘quv quroli hisoblanadi.

O‘quvchilarda qutblar, ekvator, meridianlar va parallellar to‘g‘risida geografik kenglik va uzunlik haqida to‘g‘ri tasavvur hosil qilish uchun bu tushunchalar bilan tanishtirishni globusdan boshlash va faqat shundan keyingina yarim sharlar kartasi bilan ishslashga o‘tish kerak. Bunday holda globus ayniqsa qulaydir, bunday globusda bo‘r bilan gradus to‘rini chizib ko‘rsatish mumkin: “Yerning shakli va harakati”, “Yil fasllarining almashinishi” mavzularini o‘tayotganda globus asosiy ko‘rsatmali o‘quv quroli hisoblanadi.

Globusdan eng qisqa masofani o‘lhash uchun berilgan ikki manzil orasiga globus yuzasiga ip yoki millimetrlarga bo‘lingan qog‘oz qo‘yib, so‘ngra uni o‘lhash va globusning sonli miqyosi maxrajiga ko‘paytirish kerak bo‘ladi.

Materiklar va okeanlarni, katta dengizlar va orollarni, katta mamlakatlarni, katta – katta hududlarni o‘rganayotganda ham ularni dastlab globusdan, so‘ngra kartadan ko‘rsatish foydalidir. Yuqoridagi sabablarga ko‘ra katta maydonlarga doir masalalar o‘rganilayotganda ham globusdan ko‘rsatish zarur.

### **2.3.Globus yordamida mustaqil ishlarni tashkil etish**

Globus Yerning kichraytirilgan modeli bo’lganligi uchun unda geografik kartalarda uchraydigan xatoliklar bo’lmaydi. U teng masshtabli, teng burchakli va teng maydonli bo’lgani uchun unda tasvirlangan geograik borliq, voqeа va hodisalar to‘g‘ri va aniqligi bilan ajralib bturadi. Shuning uchun globuslar umum ta’lim, o’rta va oliy ta’limning diyarli barcha predmetlarini o‘rganishda albatta qo’llaniladi. Globus yordamida o‘quvchilar ongida jahondagi yirik hududlarning tasviri o‘lchamlari va maydoni haqida to’la va aniq tasavvurlar shakillanadi. Faqat globusgina daraja to’ri hech qanday xatoliklarsiz tasvirlanadi, parallellar va meridianlar orasidagi masofa joydagи masofaga mos keladi.

Globusdan tabiiy geografiya, iqtisodiy geografiya hamda amaliy geografiya kurslarini o‘qitishda keng foydalaniladi.

Tabiiy geografiya darslarida quyidagi mavzularni o‘rganishda globusdan foydalanish mumkin:

-Yerning shakli va o‘lchamlari;

-Daraja to'ri, qutblar, ekvator, meridianlar, paralellar, geografik kengliklar va uzunlik;

- Yerning o'z o'qi atrofida va Quyosh atrofida aylanishi va uning oqibatlari;
- Eng muhim ekspiditsiyalar, sayohatlar yo'nalishi.


Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida quyidagi mavzularni globus yordamida o'tish mumkin:

- jahon siyosiy kartasi; -qit'alar va alohida mintaqalar kartasi;
- mamlakat maydonlarini, chegaralar uzunligini aniqlash;
- quruqlikda va suvda yo'llarni yo'nalishi va uzunligini aniqlash.


Globusdan tabiiy geografiya kurslarida ko'proq foydalaniladi.

Yerning shakli va o'lchamlarini tabiiy geografik globuslarda o'rghanish mumkin. Bunda Yerning dumaloqligi va uning og'irligi oson tushintiriladi. Yerning maydoni, aylanasining uzunligi globus masshtabdan foydalanib aniqlanadi. Masalan globusning masshtabi 1:40 000 000 bo'lsa globusdagi 1 sm oraliq Yer yuzasidagi 400 km ga teng ekanligi o'quvchilarga tushuntiriladi. Shundan so'ng globusning ekvator bo'yicha uzunligi santemetrarda yoki santemetrarga bo'lingan matoli metr bilan aniqlanadi. Santemetrda o'lchangan globusning aylanasining uzunligi globus masshtabiga ko'paytiriladi. Masalan globusning aylanasining uzunligi 100 sm bo'lsa unda globus aylanasining (ekvatorning) uzunligi 100sm x 400 q 40 000 km. Xuddi shu taxlitda sinfni yarmi ekvatordan shimoldagi, yarmi ekvatordan janubdag'i paralellarni uzunligini aniqlashi mumkin. Bunda ular ekvatordan shimal va janub tomon paralellarni uzunligini kamayib borishini va qutblarda ular eng qisqa ekanligini bilib olishadi.

Daraja to'ri, paralellar, geografik uzunlik va kenglik tushunchalarini shakillantirishda ham globus katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bunda har tushuncha masalan ekvator, qutblar, meridian va paralellar bevosita globusda ko'rsatilib tushuncha hosil qilinadi. Masalan, Yer sharini teng ikkiga bo'lib turadigan, uni o'rtasidan o'tkazilgan chiziqqa ekvator deb ataladi deb o'qituvchi globusdan ekvatorni joylashishini ko'rsatadi va undan shimoliy va janubiy qutblargacha so'ng meridian, parallel, geografik kordinatalar tushunchalari hosil qilinadi va tegishli mashqlar o'tkaziladi (2-rasm).



**2-rasm. Yer qutublari**



**3-rasm. Geografik kengliklar**

Yerni o’z o’qi atrofida va Quyosh atrofida aylanishini ko’rsatish uchun globus va lampadan foydalilanadi. Bunda globus lampa atrofida aylantiriladi va yoritish mintaqalarini hosil bo’lishi tushuntiriladi (3-rasm). Globusni o’z o’qi atrofida aylantirib tong, tush, kech va qorong’u tushunchalarini ko’rsatish mumkin. Mazkur ishlar kecha va kunduzni, fasillar hosil bo’lishini tushuntirishga imkon beradi. Mazkur tajribalar yordamida Quyosh nurlarini Yer yuzining turli joylarida turlicha burchaklarda tushishini ya’ni ekvator atroflariga tik, qutublarga borgan sari tushish burchagi kamayib borishini va buning oqibatida Yer yuzasining turli joylari turli miqdorda issiqlik olishini hamda qutublar yarim yil to`xtovsiz quyoshni botmasligi yoki chiqmasligini tushuntirish mumkin. Tabiiy geografik

globuslarda eng muhim ekspeditsiya va sayohatlar yo'nalishini ham tushirilgan. Mazkur ma'lumotlardan msateriklar va okeanlar geografiyasini o'rganishda foydalanish mumkin. Masalan, Amireka qit'asini kashf qilishi va tekshirish tarixini o'rganish davomida X.Kolumb ekspeditsiyasi yo'nalishlarini aniq va to'la tushintirish mumkin.Iqtisoldiy va ijtimoiy geografiya darslarida globuslar ko'proq jahon siyosiy kartasini o'rganishda davlatlarni joylashishi va maydonini aniqlashda, dengiz va quruqlikdagi yo'llarni yo'nalishi va uzunligini aniqlashda, yirik iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan portlarni aniqlashda ishlatiladi. Bundan tashqari alohida materiklar, qit'alar mintaqalar siyosiy kartasini va ularda davlatlani joylashishini va ularni o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda ham ishlatiladi.

#### **2.4.Ayrim mavzular bo`yicha mustaqil ishlarni tashkil etish**

##### **Surxondaryo iqtisodiy rayoni**

##### **Mustaqil ta'limni o'qitish texnologiyasi**

Vaqti – 6 soat	Talabalar soni: 20-30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Muammoli bahs-munozara, bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish.
Mustaqil ta'lim mashg'ulotining rejasи	<ol style="list-style-type: none"> <li>1.Iqtisodiy geografi o'rni va tabiiy resurslari.</li> <li>2.Aholisi va mehnat resurslari.</li> <li>3. Xo'jaligi.</li> </ol>
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarga Surxondaryo iqtisodiy rayonining xo'jaligi haqida ma'lumotlar berish.	

<p>Pedagogik vazifalar</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Iqtisodiy rayonning mamlakat iqtisodiyotida ahamiyati haqida bilim berish.</li> <li>• Xo‘jaligida ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqlari haqida ma’lumotlar berish.</li> <li>• Statistik ma’lumotlar asosida diagramma va jadvallar tuzishni o‘rgatadi.</li> </ul>	<p>O‘quv faoliyatining natijalari Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Iqtisodiy rayonning mamlakat iqtisodiyotida ahamiyati haqida bilimga ega bo‘ladi.</li> <li>• Xo‘jaligida ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqlari haqida ma’lumotlarni o‘rganadi.</li> <li>• Statistik ma’lumotlar asosida diagramma va jadvallar tuzishni o‘rganadi.</li> </ul>
O‘qitish uslubi va texnikasi	Muammoli usul, blits-so‘rov, klaster
O‘qitish vositalari	O‘quv qo‘llanmalar, laboratoriya jihozlari, jadvallar, prezentatsiya.
O‘qitish shakli	Kichik guruxlar va juftliklarda ishslash.
O‘qitish sharoitlari	Namunadagi auditoriya.
Monitoring va baholash	Og‘zaki va yozma nazorat.Natijalar topshiriladi, baholanadi.


### **Mustaqil ta’lim mashg‘ulotining texnologik xaritasi**

Bosqichlar, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	o‘qituvchi	talaba
1-bosqich  Kirish  (10 min.)  Muammoli  topshiriq bilan taniştiradi	1.1. O‘quv mashg‘ulotining mavzu va rejasini ma’lum qiladi. Erishadigan natijalar bilan tanishtiradi. Mazkur mashg‘ulot muammoli tarzda o‘tishini e’lon qiladi.	1.1. Eshitadilar va bajargan mustaqil ishlarini tartibga keltiradilar.

<p><b>2-bosqich</b> <b>Asosy qism</b> <b>(60 min.)</b></p> <p><b>Muammoli topshiriq echimi amalga oshiriladi</b></p>	<p>2.1. Talabalar e'tiborini rejadagi savollar va ulardagi tushunchalarga qaratadilar.</p> <p>2.2. Muammoli savollarni o'rtaga tashlaydi va ularni birgalikda o'qishga chorlaydi:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Surxondaryo iktisodiy rayoniga kaysi viloyat kiradi va uni geografik urni.</li> <li>2. Surxondaryo iktisodiy rayonining rivojlangan sanoati.</li> <li>3. Surxondaryo iktisodiy rayonini tabiiy resurslari.</li> <li>4. Yirik shaxarlari va sanoat markazlari.</li> </ol>	<p>2.1. Talabalar javob beradilar va tuzgan jadvalla-rini izohlaydilar</p> <p>2.2. Muammoga e'tiborni qaradilar, muammo yuza-sidan o'z echimlari-ni taklif qiladi-lar. Munozara qi-ladilar. Javob beradilar, optimal echimlar yuzasidan takliflar beradi-lar, esse yozadilar.</p>
<p><b>3-bosqich</b> <b>YAkuniy</b> <b>(10 min.)</b></p> <p><b>muammoli topshiriq tahlil etiladi, muammoli topshiriqlar bo'yicha xulosa</b></p>	<p>3. Muammoli topshiriqlarni tahlil etadi.</p> <p>3.1. Mavzuga xulosa qiladi.</p> <p>3.2. Rejadagi natijaga erishishda faol ishtirokchilarni baholaydi.</p>	<p>Eshitadilar, o'zlariga qo'yilgan baholar bilan tanishadilar va o'z fikrlarini bildiradilar.</p>

## SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIY KARTA

Sanoatning asosiy tarmoqlari:  
elektrenenergetika, yoqilg'i, yengil, oziq-ovqat,  
un tortish-yorma  
Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari:  
donchilik, paxtachilik, bog'dorchilik va  
uzumchilik, go'sht-sut chorvachiligi, qo'ychilik,  
ipakchilik



4- rasm Surxondaryo viloyati iqtisodiy kartasi

## Vizual materiallar

## 1-jadval

## Iqtisodiy rayon xo‘jaligining asosiy tarmoqlari va mahsulotlar turi

(1-rasm) dan foydalaniлади

Eslatma: Omillar ta'sirini baholash: “++” – katta ta'sir ko'rsatadi;

“+” – ta’sir ko‘rsatadi:

“-” – ta’siri sezilmaydi.

2-jadval

## Iqtisodiy rayonning iqtisodiy salohiyati

Nº	Viloyatlar	Tabiiy resurslar	Aholi

**Nazorat shakli (hisobot, taqdimot):** Natijalar “a’lo”, “yaxshi”, “qoniqarli”, “qoniqarsiz” baholar ko‘rinishida joriy va oraliq baholashdagi 70 ball hisobidan 10 balli tizimda baholanadi. Bu mashg‘ulotda maksimal ball 5 ball hisoblanadi va quyidagi mezonlarida inobatga olinadi:

4,3-5 ball – a’lo: xulosa va qaror qabul qilish, ijodiy fikrlay olish, mustaqil mushohada yurita olish, amalda qo‘llay olish, mohiyatini tushunish, bilish, aytib berish, tasavvur hosil qilish darajalariga ega bo‘lsa qo‘yiladi.

3,5-4,3 ball – yaxshi: mustaqil mushohada yurita olish, amalda qo‘llay olish, mohiyatini tushunish, bilish, aytib berish, tasavvur hosil qilish darajalariga ega bo‘lsa qo‘yiladi.

2,7-3,4 ball – qoniqarli: mohiyatini tushunish, bilish, aytib berish, tasavvur hosil qilish darajalariga ega bo‘lsa qo‘yiladi.

0-2,7 ball – qoniqarsiz: berilgan topshiriqlar bo‘yicha tasavvurga ega bo‘lmasa va bilmasa.

Baholash mezoni individual tarzda so‘rab baholanishi yoki guruhiy ko‘rinishida baholanishi mumkin.

### Baholash mezonlari (ballarda)

Guruhlari	Ishni bajarish tartibida yondoshuvning to‘liqligi (0,5)	Berilgan 3 ta topshiriqning oxiriga etkazilganligi (1,0)	Faollik (savollar va javoblar) (0,5)	Ballar yig‘indisi (2,0)
1				
2				
3				

## Xulosa

O'quvchilar faoliyatini faollashtirish, ularning mustaqil ishlariga alohida e'tibor berishni talab etadi. O'quvchilar faoliyatini faollashtirish va bilimlarni puxta o'zlashtirishning asosiy vositasi - o'quvchilarning mustaqil ishlaridir. Maktab ta'lmini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari, isloh asosida ishlab chiqilgan, takomillashtirilgan maktab geografiya dasturlari, o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish, ta'lim vositalaridan bilim manbai tarzida foydalananishni nazarda tutadi. O'zbekiston pedagogikasining asosiy talablaridan biri o'quvchilarning mustaqil faoliyatlarini rivojlantirishdir. O'quvchi o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida ishlamasa, bilimlarni rasman egallaydi, keyingi amaliy faoliyatda undan foydalana olmaydi.

Yangi materialni o'zlashtirishda o'quvchilar tomonidan bajariladigan ishlardan biri mustaqil ishlardir. Bu usul yangi bilimlarni amalga tatbiq eta olishdan iborat. Psixolog va pedagoglarning ta'kidlashicha, o'quvchi bilim olishda mustaqil ishlashni o'r ganmasa bilimi yuzaki bo'ladi. Mustaqil ishlar yangi materialni o'r ganish darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash, kartografik ko'rgazmali qurollar bilan ishlash, ma'ruzalar tayyorlash kabilarni o'z ichiga oladi. Mustaqil ishdan maqsad nazariy bilimlarni egallahash qonuniyatlarni belgilash, bilim olish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Mustaqil ishning asosiy maqsadi-o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish, ularning mustaqil bilim olishga, ijodiy fikrlashga tayyorlash, ayni vaqtida yoshlarni hayotga tayyorlashdan iboratdir. Demak, mustaqil ishni-yangi bilim va ko'nikmalarni egallahash, egallangan bilim va tajribalarni takomillashtirish deyish mumkin.

Geografiya darsidagi mustaqil ish turli didaktik maqsadlarni nazarda tutishi mumkin. Mustaqil ish asosan yangi materialni o'r ganish jarayonida va mustahkamlashda yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish maqsadida tashkil etilishi kerak. Darsda o'qituvchi rahbarligida yangi materialning muayyan qismini o'quvchilar mustaqil o'r ganishlari ham mumkin. Yangi materialni o'r ganish jarayonidagi o'quvchilarning mustaqil ishlari ikki xil yo'l bilan olib boriladi:

1.O'qituvchi yangi materialni tushuntirib boradi, o'quvchilar esa ayni vaqtida, o'qituvchini tinglash bilan birga muayyan mustaqil ish bajaradilar. Masalan: ifoda etilayotgan yangi material asosida konsept olishlari yoki o'rganilayotgan geografik ob'yekt va hodisalarni yozuvsiz kartaga tushirib boradilar.

2.O'qituvchi mustaqil ish uchun o'quvchilarga topshiriq beradi, so'ngra yangi materialni tushuntiradi, keyin o'quvchilar mustaqil ish bajaradilar.

Umuman mustaqil ishlar katta ta'limiylar va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mustaqil ish o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantiradi, o'rganilgan masalani chuqurroq o'ylashga, uning eng muhim qismini izlashga, yakun yasab xulosalar chiqarishga imkon beradi. Mustaqil ishsiz mustahkam va ongli bilim berish, tegishli ko'nikma va malakalarni hosil qilish, mustaqil bilim olishni ta'minlab bo'lmaydi.

Mustaqil ish avvalo geografiya o'qituvchisidan, shuningdek o'quvchilardan muayyan tayyorgarlik talab etadi. Mustaqil ishga o'quvchilarni dars jarayonida oddiy, elementar ishlardan, sekin-asta murakkablashtirib o'rgatib borish lozim. O'qituvchi o'quvchilarni dastlab darslik matni, illyustratsiyalari, topshiriqlari bilan ishlashga, kartani o'qiy olish va undan mustaqil foydalanishga, rasm va chizmalar bilan ishlashga, ma'lumotnomalar va lug'atlar, geografiya atlasi oxiridagi nomlar ko'rsatkichidan foydalanishga, tabiat hodisalarini kuzatish va kuzatish natijalarini ishlab chiqishga, biron geografik ob'yektga reja asosida xarakteristika berishga, konsept tuzishga o'rgatib borish lozim. Yuqoridagi ishlarni bajarishga oid muayyan ko'nikma egallangach, o'quvchilarga boshqa, murakkabroq mustaqil ishlarni tavsiya etish mumkin.

Mustaqil ishlarni o'tkazish o'rni va metodlari o'quv materiali, topshiriqlarni qaysi maqsadda bajarilishiga qarab har xil bo'ladi. Masalan: tayanch bilimlarini qayta tiklashga oid topshiriqlar ko'pincha yangi materialni o'rganish oldidan bajariladi. Bunday topshiriqlar geografiya darsliklarida, deyarli har bir mavzu oldidan beriladi. Tayanch bilimlarni qayta tiklashga oid topshiriqlar yangi materialni o'rganish jarayonida ham bajarilishi mumkin.

Geografiya kursida o'quvchilar juda ko'p matematik kartalar bilan ishlaydilar. O'quvchilarning matematik kartalarni o'qiy olishga, kartalarda geografik ob'yekt va hodisalarni ko'ra olishga, kartadan bilim manbai tarzida foydalanishga o'rgatib

borish lozim. Ob'yeqt va hodisalarni karta asosida tarif berish uchun o'quvchilar bilan dastlab uning rejasini ko'rib chiqish va reja punktlarini bajarish bo'yicha metodik ko'rsatma berish talab etiladi. Yuqoridagi ko'rsatmalar va tayyorgarlikdan, o'quv ish usullarini egallaganlaridan keyin o'quvchilar mustaqil ish bajarishga kirishishlari mumkin. Mustaqil ishlarning samarasi, o'quvchilarning tayyorgarligiga, o'qituvching ijodiy faoliyati, mahorati, tajribasi va qamrov doirasiga bog'liq.

Mustaqil ishlar o'quvchilar faoliyatini amaliy ishlarga nisbatan ko'proq qamrab oladi. Ular amaliy ish bilan birga turli bilim manbalari bilan ishslashni o'z ichiga oladi.

Mustaqil ishning asosiy maqsadi-o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish, ularning mustaqil bilim olishga, ijodiy fikrlashga tayyorlash, ayni vaqtida yoshlarni hayotga tayyorlashdan iboratdir. Demak, mustaqil ishni-yangi bilim va ko'nikmalarni egallahash, egallangan bilim va tajribalarni takomillashtirish deyish mumkin.

Mustaqil ish bir necha qismlardan iborat bulib, ular bir-biri bilan o'zaro boglangan. Mustaqil ishni tashkil etganda ularning bir – biri bilan aloqadorligini nazarda tutish taqazo etiladi.

O'quvchilarga tayyor bilim berish amalda keng tarqalgan ta'lim tarzidir. Ta'limning bunday tarzi o'quvchilarning bilish qobiliyatlarini rivojlantira olmaydi. Psixologlar: "Bunday bilim keraksiz yuk bo'lib qoladi" deydilar.

O'quvchi qanday bilim olayotganini, qanday bilayotganini, bilish usullarini qanday egallyotganini tushunib yetsa, uni mustaqil ta'lim olish deyish mumkin. Demak, geografiya ta'limidagi mustaqil ishning didaktik vazifasi – o'quv ishlarining o'ziga xos usullarini egallahash, binobarin, fanning tadqiqot metodlarini egallahashni ta'minlashdan iborat.

Geografiya darsidagi mustaqil ish turli didaktik maqsadlarni nazarda tutishi mumkin. Mustaqil ish asosan yangi materialni o'rganish jarayonida va mustahkamlashda yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish maqsadida tashkil etilishi kerak. Darsda o'qituvchi rahbarligida yangi materialning muayyan qismini o'quvchilar mustaqil o'rganishlari ham mumkin.

## **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. “Yuksak malakali mutaxasislar-taraqqiyot omili”. T. “O’zbekiston”. 1995
2. Karimov I.A. “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. T. “O’zbekiston”. 1997
3. “Barkamol avlod orzusi”. T. “Sharq”. 1998
4. Abdug’aniev O. “Geografiya darslarida texnika vositalaridan foydalanish”. T. “O’qituvchi” 1995
5. Hasanov I.A., G`ulomov P.N. O’zbekiston tabiiy geografiyasi.– T.: O’qituvchi, 2007.
6. Hayitov A.T., Boymurodov N. Ta’limda hoan`anaviy darslar va interfaol usullrdan foydalanish. -T.: Yangi asr avlodi. 2006. - 76 b.
7. Ibragimov X.I., Yo`ldoshev U.A., Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya.  
– T.: Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. – B. 76-96 .
8. Kalonov B.H., Hayitov A.T., Erdonov L.N. O’zbekiston geografiyasini maktabda o`rganish.-Qarshi, Nasaf nashriyoti, 2004.-254b.
9. Kalonov B. H. Mamatov A. Ommobop geografiya.  
– T.: Zar qalam nashriyoti, 2006. - 160b.
10. Musayev R., Musayev J. O’zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi.  
8-sinf darsligi. -T.: Sharq, 2014. B.142-146.
11. Nabiiev E., Qayumov A. O’zbekistonning iqtisodiy salohiyati. – T.: Universitet, 2000.- 86 b.
12. Qurbonov Sh.B. Kichik hududlar ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi.  
- T.: Mumtoz so`z, 2013.- 158 b.
13. Ro’ziyev A., Abirqulov Q. O’zbekiston iqtisodiy geografiyasi. – T.: Sharq, 2001.- 144 b.
14. Soliyev A.S., Ahmedov E., Maxamadaliyev R.Y. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. O’quv qo’llanma. – T.: Universitet, 2003.- 304 b.
15. Soliyev A., Nazarov M. O’zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi). – T.: Fan va texnologiya, 2009.- 212 b.

- 16.Soliyev A., Nazarov M., Qurbanov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. – T.: Mumtoz so`z, 2010.- B.189-211.
- 17.Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyat. -T., 2013.- 226 b.
- 18.Tojiyeva Z.N. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joylanishi (1989-2009 yy.). Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2010.- 276 b.
- 19.To'xliyev N. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.
- 20.8-sinf atlasi.-T.: O`zbekiston Respublikasi yer resurslari,geodeziya, kartografiya va davlat kadastro qo`mitasi, 2014.-B.50.
- 21.Воронин В.В., Шаригин М.Д. Экономическая, социальная и политическая география.- Самара, 2006. - 254с.
- 22.Максаковский М.Р. Общая экономическая и социальная география. - М.: ВЛАДОС, 2009.- 356с.
23. Саушкин Ю.Г. Географическое мисление. – Смоленск.: Ойкумена, 2011.- 256с.
- 24.[www.ziyo.net](http://www.ziyo.net).- O'zbekiston yoshlari internitda maxsus tarmoq.
- 25.[www.ilm.uz](http://www.ilm.uz).- Mamlakat ta'lim tizimidagi ilmiy yangilik, ilmiy ishlar, tadqiqot ishlari ifodalangan.

**Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti “Geografiya o`qitish metodikasi” ta’lim yo`nalishi 4-kurs talabasi Sayfiyeva Uljon Abdihomidovnaning “Geografiya darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish usullari ” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

**T A Q R I Z**

Maktab ta’limining eng asosiy vazifalari o’quvchilarga fan asoslarini o’rgatish va ularda tegishli malakalar hosil qilish, shu hosil qilingan bilim, ko’nikma va malakalardan o’z faoliyatida o’rinli foydalana olish, yuz bergan qiyinchiliqlarni shu bilim va malakalarga tayanib bartaraf eta bilish qobiliyatlarini o’stirishdan iborat. Jamiyat taraqqiyotini yetuk o’qituvchlarsiz tasavvur etish qiyin. Malakali pedagog mutaxassislar tayyorlash esa ko’p jihatdan ularning metodik tayyorgarligiga bog’liq. Ayniqsa hozirgi murakkab axborotlarni geografik hodisa sabab-oqibatlarni, tabiiy va iqtisodiy geografik tushunchalarni ular ongiga yetkazish, shakllantirish nihoyatda murakkab jarayon hisoblanadi. Maktab dasturi o’quvchilarga geografiyaga oid bilim berish bilan cheklanmaydi, balki ularda zarur ko’nikma va malaka hosil qilishni ham o’z zimmasiga oladi. Har bir o’quvchi darsda olgan ko’nikma va malakalari asosida bilimlarni mustaqil egallashi zarur bo’ladi. Bularning barchasi geografiya o’qituvchisidan maxsus metodik tayyorgarlikga ega bo’lishni talab qiladi.

Bitiruv malakaviy ishida geografiya. Mustaqil ishlar katta ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mustaqil ish o’quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantiradi, o’rganilgan masalani chuqurroq darslarida o’quvchilar tomonidan bajariladigan mustaqil ishlarni yoritish maqsad qilib olingan o’ylashga, uning eng muhim qismini izlashga, yakun yasab xulosalar chiqarishga imkon beradi. Mustaqil ishsiz mustahkam va ongli bilim berish, tegishli ko’nikma va malakalarni hosil qilish, mustaqil bilim olishni ta’minlab bo’lmaydi. Mustaqil ishning asosiy maqsadi – o’quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish, ularning mustaqil bilim olishga, ijodiy fikrlashga tayyorlash, ayni vaqtida yoshlarni hayotga tayyorlashdan iboratdir. Mazkur BMI tugallangan ish bo`lib, ishni himoyaga tavsiya etaman.

**Taqrizchi:**

**Navoiy shahridagi 17-son mактабning geografiya**

**fani oqituvchisi Ch. Toshimova.**

**Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti “Geografiya o`qitish metodikasi” ta’lim yo`nalishi 4-kurs talabasi Sayfiyeva Uljon Abdihomidovnaning “Geografiya darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish usullari ” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

**T A Q R I Z**

Bitiruv malakaviy ishining bosh maqsadi geografiya darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish sakillari ularni yangi pedagogik texnologiya asosida bilim olishga o`rgatishdan iborat. Mustaqil ishlar yangi materialni o`rganish darslik va qo’shimcha adabiyotlar bilan ishlash, kartografik ko’rgazmali qurollar bilan ishlash, ma’ruzalar tayyorlash kabilarni o’z ichiga oladi. Mustaqil ish bajaradigan o’quvchilar biron vazifani bajarishda ilgari olgan bilimga tayanadi. Mustaqil ishdan maqsad nazariy bilimlarni egallash qonuniyatlarini belgilash, bilim olish ko’nikmalarini hosil qilishdan iborat. Mazkur Bitiruv malakaviy ishida geografiya darslarida o’quvchilar tomonidan bajariladigan mustaqil ishlarni yoritish maqsad qilib olingan. Bitiruv malakaviy ishida darslik yordamida mustaqil ishlarni tashkil etish, statistik ma’lumotlar bilan ishlash, geografik kartalar va globus yordamida mustaqil ishlarni tashkil etish kabi fikrlar bayon etilgan.

Mustaqil ishlar katta ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mustaqil ish o’quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantiradi, o’rganilgan masalani chuqurroq o’ylashga, uning eng muhim qismini izlashga, yakun yasab xulosalar chiqarishga imkon beradi. Mustaqil ishsiz mustahkam va ongli bilim berish, tegishli ko’nikma va malakalarni hosil qilish, mustaqil bilim olishni ta’minlab bo’lmaydi. Mustaqil ishlar o’quvchilarning o’quv faoliyatlarida, turli didaktik masalalarni hal etishda, nazariy bilimlarni shakllantirishda, geografik qonuniyatlarni aniqlashda, bilim va ko’nikmalarni egallah va amalda tadbiq etishda olib boriladi. Mustaqil ish o’quvchilarning bilim va ko’nikmalarni tekshirishda, yangi materiallarni o’rganishda, uni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Mazkur BMI tugallangan ish bo`lib, ishni himoyaga tavsiya etaman.

**Taqrizchi:**

**Geografiya oqitish metodikasi kafedrasи  
dotsenti, g.f.n. Yu.B.Raxmatov**

**Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti “Geografiya o`qitish metodikasi” ta’lim yo`nalishi 4-kurs talabasi Sayfiyeva Uljon Abdihomidovnaning “Geografiya darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish usullari ” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

**XULOSA**

“Ta’lim to`g`risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da o`quvchilarga hamda talabalarga faqat geografiyaga oid bilim berish bilan cheklanmasdan balki ularda zarur ko`nikma va malaka hosil qilishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ymoqda. Har bir o`quvchi va talaba dars davomida olgan ko`nikma va malakalar asosida bilimlarni mustaqil egallashi zarur bo`ladi. Mamlakatimizda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ga muvofiq umumiyoq o`rta ta’limning barcha bo`g`inlarida o`quvchilarni muntazam bilim olish, ularda bilim olish ehtiyojlarini rivojlantirishni o`quvchilarda mehnat ko`nikmalarini mustaqil ijodiy fikrlash, kasb tanlashga va umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilishni o`z Vataniga, xalqiga sadoqat, mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashdek vazifalarni belgilaydi. Bu vazifalarni bajarishda geografik ta’lim alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa tabiiy va iqtisodiy geografiya fanlarini o`qitish borasida milliy dasturda qo`yilgan vazifalarni bajarish cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini tajribalar isbotlamoqda. Bularning barchasi geografiya fani o`qituvchisidan yuksak pedagogik mahorat, o`z faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni tahlil qila olishni, o`z ish tajribasini tahlil qilib umumlashtira olishni boshqa o`qituvchilarining tajribasini umumlashtirishi va samarali usullar, metodlardan o`z ishida oqilona foydalanishni talab qiladi.

O`quvchilar faoliyatini faollashtirish, ularning mustaqil ishlariga alohida e’tibor berishni talab etadi. O`quvchilar faoliyatini faollashtirish va bilimlarni puxta o`zlashtirishning asosiy vositasi – o`quvchilarining mustaqil ishlaridir. Talaba Sayfiyeva Uljon tomonidan yozilgan “Geografiya darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish usullari” mavzusidagi BMI tugallangan ish bo`lib ishni himoyaga tavsiya etaman.

**Ilmiy rahbar:**

**g.f.n., dots. B.H.Kalonov**

# H I M O Y A V A Q T I

---

---

**Bitiruv malakaviy ishini baholash mezoni**

**Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya o`qitish metodikasi kafedrasи**

**Bitiruv malakaviy ishi himoyasi**

Mavzuning dolzarbligi	Bajarilgan ishning mustaqillik darajasi	Ishning amaliy ahamiyati	Adabiyotlardan foydalanish darajasi
12	32	16	10

Ishning rasmiylashtirilishi	Bitiruv malakaviy ishining himoyasi	Umumiy ball	№
10	20	100	

**DAK raisi:** \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_